

Ergashev Do'smamat

TASVIRIY SAN'ATDAN DARS ISHLANMALARI

6-sinf



ANNOTASIYA

Tasviriy san'at darslarini o'qitishga oid muammolar maktablarning tasviriy san'at o'qituvchilari uchun talaygina. Ularni to'g'rilash va bartaraf etishning yo'llaridan biri sinf o'quvchilari uchun tasviriy san'at darsliklarini yaratishdir. Lekin, xanuzgacha 4-5-6-sinflarga oid darslik chop etilganicha yo'q. Shuni hisobga olib 6-sinfda dars o'tadigan o'qituvchilar uchun tasviriy san'at dasturi asosida dars ishlanmalari tayyorlab chiqarishni lozim topdik. Bu dars ishlanmalari 6-sinfda o'tiladigan narsaning o'ziga qarab rasm ishlash, san'atshunoslik asoslari, kompozisiyaon faoliyatga oid bo'lib ularni grafikada, rangtasvirda natyurmortlar, portretlar, manzaralar yaratish va dekorativ amaliy san'at, qoralama kabi masalalar yoritiladi. Ushbu uslubiy tavsiyanoma tasviriy san'at o'qituvchilariga darslarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishlarida yordam beradi degan o'middamiz.

Muallif: Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi Samarqand VPKQTMOI "Jismoniy tarbiya, san'at va mehnat ta'limi" kafedrasining katta o'qituvchisi D. Ergashev.

Taqrizchilar: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universitetining katta o'qituvchisi F. Toshpulatov., Sh.Oydinov.

Pastdarg'om tuman xalq ta'imi bo'limiga qarashli 103-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi Sh. Abdunazarov.

Mazkur metodik tavsiyanoma M.Behbudiy nomidagi Samarqand VPKQTMOI "Jismoniy tarbiya, san'at va mehnat ta'limi" kafedrasining 2009 yil 30 noyabrdagi 9- sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Aziz ustozlar! Mazkur metodik tavsiyanoma 6 - sinf o'quvchilari uchun tasviriy san'at fanidan darslik yo'qligi sababli modernizasiya qilingan o'quv dasturi bo'yicha o'qituvchilarga metodik yordam sifatida fan bo'yicha materiallarining mavjud emasligi hisobga olinib tayyorlandi.

Tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o'quvchilarni ijodkor, komil, mustaqil fikrga ega bo'lgan insonlar bo'lib shakllanishiga yordam beradigan, nafosat tarbiyasini qalbiga singdiradigan fanni ta'limiy – tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga uslubiy yordam tariqasidadir.

Tasviriy san'at darslari hamma sinflardagi kabi 6 - sinfda ham 34 soatni tashkil etadi. 6 - sinf o'quvchilarining boshlang'ich va 5 - sinfda olgan bilimlarini tarixiy - nazariy jihatdan, amaliy - tasviriy jihatdan shakllantirish kerakligi hisobga olingan. Ya'ni, tasviriy san'at tarixi, san'atning ijtimoiy borliq xodisasi ekanligi, madaniy - ma'rifiy ahamiyati, badiiy - estetik jihatlarini o'quvchilarga o'rgatiladi.

Amaliy rasm chizish jarayonida o'quvchilar o'zlarining qobiliyati, iqtidori, iste'dodi va talantini namoyish etadi. Har bir insonning faqat san'at bilan ochiladigan qopqoqchasi bo'ladi deyiladi. Bola amaliy ishlar bajarish orqali o'zining iste'dodini ko'rsatadi. Chunki tasviriy san'at darslarining hamma turlarini o'qitish jarayonida kompozisiya yaratiladi. Bu esa ijodiy ish hisoblanadi. Shu orqali o'quvchilarning bilim, kunikma va malakalari shakllanib boradi.

6 - sinfda chet el tasviriy san'atiga ham alohida e'tibor berilgan. Bunda Yaponiya, Koriya, Xitoy rassomlari uslubida rasm chizish masalalari kiritilgan. Shuningdek, Sharq miniatyura san'ati an'analarini o'zlashtirib, o'rganib oladi.

O'qituvchilarga yuqoridagi masalalarni o'rgatishning yangi yo'nalishlari YaPT(yangi pedagogik texnologiya), noan'anaviy darslar misolida olib boradilar. Bu dars ishlanmalari shu kabi masalalarni yoritishda o'qituvchiga yordam beradi.

1 - DARS. MAVZU: O'RTA ASRLAR TASVIRIY SAN'ATIDA USUL VA YO'NALISHLAR.

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga o'rta asrlar tasviriy san'ati to'g'risida ma'lumotlar berish, roman, gotika, milliy san'at uslublari haqida bilimlarni shakllantirish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat tarbiyasiga yo'naltirish, milliy qadriyatlar, ahloqiy tushunchalar, vatanparvarlik sifatlarini uyg'otish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: o'qta asrlar san'atidagi turli oqim, yo'nalishlar, rassomlar, me'morchilik, haykaltaroshlik asarlarini tushunishga oid bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** Parijdagi La Notir Dam Grand, Germaniyadagi Sharta Kilen shaharlari, ulardagi haykallar, milliy tasviriy san'at, Samarqand me'morchilik namunalarining foto suratlari.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, yozuv daftari, rasmlarning foto nus'halaridan namunalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. Yangi dars bayoni. 15 - 25 daqiqa.
3. O'quvchilar bilan savol - javob. 10 - 15 daqiqa.
4. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashib shu kunning muhim voqyealari, bayramlar to'g'risida qisqacha gapiriladi va yangi o'quv yili boshlanganligi, tatil vaqtida o'quvchilarning bajargan ishlari to'g'risida qisqacha suhbat qilib olinsa yaxshi natija beradi.

Yangi darsning bayoni: Dastgoh rangtasviri tasviriy san'atning eng ommoviy turlaridan biridir. Rassomchilikning rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik turlarida dastgoh rangtasvir asarlari yaratiladi. Dastgohli rangtasvirga barcha moy buyoqlarda yaratilgan asarlarni kiritish mumkin. Ular turli janrlarga bo'linib ketadi. Bunday asarlarining turlari, tartibi, xususiyatlari ham o'zgachadir. Bolalar dastgoh rangtasvirning natyurmort kompozitsiyasini alohida turli matolarga, gurunt qilingandan keyin tasvirlasalar bu ham dastgoh rangtasvir bo'ladi.

Dastgohli rangtasvirda badiiy jarayon juda tezlik bilan rivojlanib ilgari ketdi. Chunki ko'pgina bo'lib o'tgan ko'rgazmalar shuni tasdiqlaydiki, mazkur davr rangtasviri uslub va kompozitsiyasi yechimining turli-tumanligi bilan ham ajralib turadi. Bu rangtasvirda ijod qilayotgan rassomlarga erkinlik berilganining natijasidir. Bu jarayon badiiy tasvirni akslantirishda shakl va vositalarni mustaqil tanlash imkonini beruvchi yangi davr bilini ko'p jihatdan bog'liq.




Tasviriy san'at tarixida o'rta asrlar san'ati katta ahamiyatga ega bo'ldi. U vaqtlarda turli san'at oqimlari va yo'nalishlari paydo bo'lgan edi. Ko'proq bu usul va yunalishlar me'morchilikda alohida ajralib turadi. Yevropa me'morchiligining o'zi Fransiya davlatidan boshlab La Notir Dam Grand ibodatxonasi, Germaniyada Sharta Kioli saborlari, ulardagi haykallar o'ziga xos kurinishlarga ega. Shuning uchun ham germanlarniki degan ma'noni anlatadigan "gotika" san'ati shu davr yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu alohida german qabilalariga xos bo'lgan san'at turidir. Gotika (italyan tilida "gotiso", fransuzcha "gothique", tom ma'noda gotlarniki, nemislarning nomidan kelib chiqqan) uslubi G'arbiy va Markaziy, qisman Sharqiy Yevropa mamlakatlari O'rta asrlar san'ati rivojlanishining yakunlovchi bosqichidagi san'at hisoblanadi. 12 va 15 - 16 asr o'rtalari san'atidagi yetakchi uslub. "Gotika" atamasi Uyg'onish davrida kiritilgan bo'lib, O'rta asrlarning barcha san'atini "varvarlarniki" (bosqinchilarniki) deb, kamsitish ma'nosida qo'llanilgan. 19 asrdan boshlab 10 - 12 asrlar san'atiga nisbatan "roman uslubi" atamasi qo'llanilishi kiritilganidan keyin "gotika uslubi" ning xronologik tartibi chegaralanib qolgan. Ko'pincha me'morlikka nisbatan qo'llanilgan gotika uslubining rangtasvir bilan aloqasini haykaltaroshlik bilan uzviy tarzda vitraj san'ati misolida ko'rishimiz mumkin.

Shu kabi roman san'ati ham rimniki degan ma'noni beradi va uning yaratilishi qadim Italiya san'at turlarini o'zida aks ettiradi.

Har bir xalqning o'ziga xos san'ati turlari, usullari mavjud bo'lib shu joyning xayoti, tabiati, yashash tarzi bilan uyg'unlashib ketadi. Shuning uchun ham tasviriy san'at asarlarini kuzatib qarar ekanmiz u xalq to'g'risida tassovurimiz ortib, kerakli ma'lumotlarga ega ham bo'lib boramiz.

Bu ma'lumotlar usha xalqning madaniyatini, ma'naviy dunyosini ko'rsatadi. San'atning ta'sir kuchi ham shunda. O'zbekiston tasviriy san'ati ham shunday usul va yo'nalishlarga ega. O'lkamizning quyoshli, yorqin buyoqli, rang-barangligi rangtasvir san'atimizga ham ta'sirini ko'rsatadi. Me'morchilikdagi turli gumbazli binolar, mahobatli, katta mustahkam imoratlar, uning maftunkor bezaklari xalqimiz xayotidan olingandir.



Xalq amaliy san'atining naqsh elementlari me'morchilikda ham bor. Bunda islamiy naqshlar, grix naqshlari bilan ham oxang keladi.

Samarqand shahrida Shohi - Zinda ansambilining me'moriy maqbaralari, Registon ansambilidagi Sher - Dor, Ulug'bek, Tilla Qori masjidlari, Guri Amir maqbarasi, Bibixonim, Xazrati Xizir kabi masjidlari.

Toshkentda Kukaldosh madrasasi, Zangota, Shahrisabz shahridagi Oq saroy, Buxoro shahridagi Registon ansambili, Chir minor, Samoniylar maqbarasi, Xivadagi Minoraiy kalon, Ichan qala va boshqalar sharq xalqlarining o'rta asrlarda qurib butun dunyoga mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklaridir.

Bizning qadimiy yodgorliklarimizda ham roman-gotika san'ati elementlari uchraydi. Shuningdek, o'rta asr san'atidan toki hozirgacha bizda davom etib kelayotgan me'moriy elementlar peshtoq, minora, gumbaz, timpan, shift, shtil, taxmon va boshqalar ishlatib kelinadi. Bularni mana bu kabi foto suratlarda ham ko'rish mumkin deb mavzuga oid bo'lgan bir necha tom - uylarning foto suratlari va rassom asarlari reproduksiyasidan kursatish kerak..

O'quvchilar bilan vaqt ortib qolgudek bo'lsa turli mavzuga oid suhbatlar uyushtirish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Uyga avzifa qilib O'rta asrlar san'atiga oid bo'lgan illyustrativ, suratlar to'plash va mustaqil o'rganib kelish, kitoblardan konispektlar olish topshirilishi mumkin.

2-DARS.MAVZU: XITOY VA YaPONIYa RASSOMLARINING TEXNOLOGIK USULIDA NAM QOG'OZDA KOMPOZISIYa (MANZARA, DARAXTNING SHOHI, GUL VA HAKOZALAR) ISHLASH.

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga Xitoy va Yaponiya rassomlari san'ati to'g'risida ma'lumotlar berish, ularning uslublari haqidagi bilimlarini shakllantirish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat tarbiyasi, ahloqiy, baynalminallik sifatlarini uyg'otish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: Xitoy va Yaponiya san'ati, rassomlari asarlarini tushunishga bo'lgan bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** Xitoy va Yaponiya rassomlarining asarlari namunalarining foto suratlari, qog'oz, akvarel.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, yozuv daftari, rasmlarning foto nus'halari.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan dars mavzusini baholash. 7-10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 8 - 12 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 10 - 15 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashib shu kunning muhim voqyealari to'g'risida qisqacha gapiriladi. Uyga berilgan vazifalarni o'quvchilarning bajargan yoki bajarmaganligi suraladi. Tasviriy san'at tarixiga, rivojlanishiga oid qisqacha so'z olib boriladi.

O'tilgan dars mavzusini baholash: O'quvchilarning oldingi darsda o'rgangan materiallarni surab chiqiladi. O'rta asrlar tasviriy san'at haqida bolalarda qanday bilimlar paydo bo'lganligini o'rganiladi. Hammaga tegishli savollar berib faqat qo'l ko'tarib bilgan o'quvchilar javob berishi talab qilinadi. Hammani faollashtirish uchun savollarni oldindan tuzib qo'yilsa yaxshiroq bo'ladi. Albatta bu suhbat uchun oldindan tayyorlangan savollar, suratlar bo'lishi lozim. Savollarga berilgan javoblar uchun baholar qo'yilib bo'lgach yangi dars mavzusi doskada yoziladi.

Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'at tarixida o'rta asrlar san'ati katta ahamiyatga ega bo'ldi. Tasviriy san'atning rivojlanishida Sharq xalqlaridan Yaponiya va Xitoy rassomlarining yaratgan asarlari ham o'z o'rniga ega. Chunki ularda birdaniga nam qog'ozlarda ishlash usuli rasmni nihoyatda nafis bo'lishligini taminlaydi. Qadimgi Xitoy san'ati tarixiy taraqqiyoti bir necha bosqichlarda tashkil etilgan. Uchinchi asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda Xitoy xududida birinchi Shan shahri vujudga kelgan.



Qadimgi Xitoy san'ati taraqqiyoti bir necha bosqichlardan tashkil topgan bo'lib, eramizdan avvalgi 4 minginchi yillardan boshlab to eramizning 3 asrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Eramizda avvalgi 2 minginchi yillarda Xitoy hududida birinchi Shan (In) shahri vujudga keladi. Bu nom qabila nomi bo'lib Xitoy uchun xarakterli shahirdir. Bu davda asosan afsonaviy va ramziy shakllar rivojlanib ular bezakli taqinchoqlar marosimlarga atalgan idishlarni bezash, haykaltaroshlik va naqshinkor devorlarni jihozlashga keng qo'llanilgan. Javrning ajoyib bironzali idishlari, zodagonlar va qurbonlik qilish marosimlari uchun muljallangan bo'lib bezaklar nafis, turli tuman shakl va xajmdagi ko'rinishlarga boy bo'lgan.

Qishloq xujaligidagi jiddiy rivojlanish natijasida xunarmandchilik ham taraqqiy topdi. Badiiy fikrlashda, dunyo qarashda sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Yangi san'at turlari yuzaga keldi.

Qadimiy davrga mansub buyuk Xitoy devori kuchmanchi xalqlarning xujumidan ximoyalanish uchun eramizdan avvalgi 4-3 ming yilliklarda yaratilgan. U Shimoliy Xitoy chegaralarini 750 kilometrni o'rab olgan bo'lib sungra uzunligi 3 ming kilometr keladigan balandligi 5 metrdan 10 metrgacha kengligi esa 5-8 metr bo'lgan ko'plab qo'rinishlarni o'z ichiga olgan.

Tan va Sun davrida rangtasvir o'zining yuksak pog'onasiga ko'tarildi. Rassomlar asarlarini o'zun shoyiga keyinchalik vertikal va gorizontal shakldagi qog'ozlarda vaqtincha namoyish qilingan. Devorga ilib qo'yilgan gorizontal tasvirlarda odatda mayishiy matvlar, afsonoviy ko'rinishlar tasvirlangan. Vertikal tasvirlarda manzara ko'rinishi ifodalangan. Ular o'ziga xos rangtasvir kitobi vazifasini o'tagan.

Tan davrida haykaltaroshlik yuksak kutarinkilikka erishadi. Budda avliyolarning haykallari g'orlardagi ibodatxonalarga ishlanib ular o'zining egiluvchanligi bilan ajralib turadi. Ibodatxona devorlarida mayishiy mavzulardagi

syujetlar relyef shaklida bajariladi. Ular dunyoni anglash qobul qilishda tula qonli va tabiiyligi bilan kuzga tashlanadi.

15-18 asrlar Xitoy me'morchiligi yashnagan davridir. Bu davrda saroy ibodatxonalari qurildi. Pekin va Nanken shaharlari qurilishi davom ettiriladi. 1421 yildan buyon Pekin davlatning paytaxti sifatida o'tmish qurilishlari tajribalarini o'mumlashtiradi.

15-17 asrlarda qurilgan eng kuzga ko'ringan ansambil Pekin markazidagi imperator saroyi. Saroy yirik darvoza va devorlar bilan o'ralgan. Pekin ibodatxonalari ham katta komplekslardan iboratdir. O'lug'vor Osmon ibodatxonasi (15-19 asrda qayta qurilgan) bir necha binolardan tashkil etilgan.

Qadimgi Xitoy me'morchiliga xos boshliqning beqiyosligi 15-17 asrlarda Men sulolasi (1368-1644) davridagi podshohlar qabristoni ansambilida ko'rinadi. Qabristonga 800 metrli katta alleya orqali boriladi. Bu alleyaning ikki tomoni odamlar va xayvonlarning ulkan gavdalari bilan uralgan.

15-16 asr me'morchiligi ulug'vorligi bilan kuzga tashlanadi. 18 va 19 asrlar me'morchiligida boshg'qa san'at turlaridagi kabi bezakdorlik, serxas'ham holat kuchayadi. Ba'zan dekorativ nafs yog'och o'ymakorligidagi ortiqcha serxas'hamlik namayon bo'ladi.

Xalq amaliy san'ati o'rta asrlar Xitoy madaniyatida keng taniladi. Chinni bozrak, kesma tosh, yog'och, suyakdan ishlangan buyumlar ko'plab ishlatiladi. Qadimiy davrlardan boshlab go'zal buyumlarni ishlash mahorati sirlari avloddan – avlodga o'tib kelgan. Tan davrida chinni buyumlar keng tarqaladi. Yuksak sifatli kulolchilik qadimiy buyumlarning aksi bo'lib u oq loydan ishlanadi. 11-13 asr kulolchiligi nafis va ko'p qirrali edi. Sun davri rangtasvirdagi kabi ranglarning yorqinligi oddiylik va nafasatilligi bilan o'rin almashinadi. Bu davrda chinni va sopol buyumlarni Xitoyning ko'plab ustaxonalarida ishlab chiqariladi. 15-19 asrlarda shaharlar rivojiga va sovdosotiqning ko'chayishi badiiy buyumlarning ishlanish suratini tezlashtiradi. 18 asr oxirlariga qadar badiiy buyumlarning ishlanish suratini tezlashtiradi. 18 asr oxirlariga qadar ko'pgina san'at turlarining tushkunlikka uchragan kezlarda ham badiiy chinni sozlik darajasi yuksaklik darajasini saqlab qoladi.

Yapon san'atining kelib chiqishi eramizdan avvalgi 4 minginchi yillarga to'g'ri keladi. Yaponiya o'rta asrlarda ayniqsa dunyo madaniyatiga sezilarli xissa qo'shdi. O'rta asrlar Yaponiya madaniyatida Xitoy va Koriya madaniyati bilan umumiylik mavjud. 6-asrdan boshlab buddaviylik dini shu uch mamlakatda ham davlat diniga aylandi. Yapon haykaltaroshligining ilk namunalari eramizning birinchi – beshinchi asrga to'g'ri keladi. Ularning asosiy qismini loydan ishlangan harbiylar, xizmatchilar, jonivorlar aksi egallaydi. 6 va 7 asrlarda budda haykallari ibodatxonalar uchun muljallangan haykaltarosh Toriy tomonidan bajarilgan haykaltaroshlik guruhida rahim shafqat g'oyasi ilgari surilgan.

Yapon rangtasvir maktabi 11-12 asrlarga kelib shakllanadi. Yamato – Ye. Rassomlar kuchma pardalarni bezashgan. Gorizont o'ralgan gazlamalardan adabiy asarlarga illyustrasiyalar ishlangan. Portret san'ati ham taraqqiy etgan. Haykaltarosh Xuddiyara Takonobu tomonidan bajarilgan tantanali sovuq va qat'iy kurinishga ega

Moni Mato Yoriy Tomo portreti ayniqsa diqqatga sozovor (12 asr oxiri – 18 asr boshi).

Xitoy va Yaponiya san'atida keyingi davri ham rivojlandi.

Ular matolarga, qog'ozlarda uzunasiga, engga katta-katta qilib ishlangan rasmlari bilan mashhurdirlar. Ayniqsa daraxtlarning shohlarini ishlash, gullarni ishlash va xakozalar.

Mustaqil ishlar: Bu vaqtda bolalar akvarel buyog'i bilan tiniq ranglardan foydalangan holda allaprima usulida ishlash ham mumkin. Bunda birdaniga qil qalam bilan rasmni chizadilar. Ular qo'yidagicha ko'rinishlarda bo'qladi.

Birinchi bosqich – qog'oz varag'ini suvda tuliq namlab olinadi, politrani tayyorlaydi, qil qalamning bir necha turidan foydalanish mumkin. Katta yuzalarni, osmon kabi orqa fonlarni ranglab oladilar.

Ikkinchi bosqich – chizilayotgan narsalarning eng karakterlisini topish va uning ranglarini qog'oz varag'iga tasvirlash, joylarini aniq qilib belgilab olish. Suvni iloji boricha toza xolda ishlatishga e'tiborni qaratish lozim.

Uchunchi bosqich – suratni eng xarakterli joylarini, soya va yorug'likka doir kurinishlarning rangini qo'yiladi. Bunda ham buyoqlarning bir – biriga aralashib ketishi ishning aniqligini beradi.

Suralarni ishlab tugatgandan keyin yaxshi bijarilgan ishlarni doskada hammaga ko'rinarli qilib quyib tahlil qilinadi. Bir darsning o'zida bir nechta bunday rasm ishlash mumkin.

Darsning yakuni va uyga vazifa. Mavzuga oid rasmlar yig'ish, mustaqil biron gul rasmini Xitoy yoki Yaponiya uslubida ishlab kelish.

3-DARS.MAVZU: GRAFIK USULDA HARAKATDAGI ODAM (SPORTCHI) GAVDASI (FIGURASI)NI ISHLASH

Darsning maqsadi: a)ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga grafikada turli harakatdagi odamlar rasmini chizishga oid bilimlar berish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat tarbiyasiga yo'naltirish, milliy, ahloqiy tushunchalarni, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: grafika san'atida odamlar tasvirini rassomlar, haykaltaroshlik asarlaridagi talqinini, tasvirlashni tushunishga oid bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a)o'qituvchilar uchun: harakatdagi odam, sportchilarning rasmi chizilgan ko'rgazmali qo'rollar, rassom asarlarining namunalari, A.Deynika asarlaridan "Start", "Xokeychilar", P.Pikasso, B.Jalolov, J.Umarbekovlarning asarlari hamda rassom Mannon.Saidovning "oila" asari va boshqalar.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, yozuv daftari, rasmlarning foto nus'halaridan namunalari.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan dars mavzusi yuzasidan o'quvchilarning bilimini baholash.8 – 10 daqiqa.

3. Yangi dars bayoni. 12 - 15 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 15 - 20 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi:


Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashiladi va shu kunning muhim voqyealari, uyda bajarilgan ishlar to'g'risida qisqacha suhbat qilib olinadi, ob-xavoning xolati suraladi. Navbatchi orqali kunlik davomat o'rganiladi.

O'tilgan dars mavzusi yuzasidan o'quvchilarning bilimlarini baholash. Tasviriyy san'atda Yaponiya va Hitoy rassomlari ijodi o'zgacha uslublarga ega bo'lib ular ko'pincha nam qog'ozlarda rasm chizadilar. Bular to'g'risida oldindan tuzilgan savollar orqali o'quvchilarning bilimlari aniqlanadi va ular shu uslubda uyda bajarib kelgan, oldingi darsda chizgan suratlarini ko'rib baholanadi. Buning uchun hamma o'quvchilar uy vazifalarni partalar ustiga qo'yib chiqadi. O'qituvchi uni kuzatadi va yaxshi, o'rtacha va yomon chizilgan ishlardan olib ularni bolalarning o'zlari yordamida tahlil qilinadi. Yutuq va kamchiliklar aytilib, hatolarni to'g'rilash yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Yangi darsning bayoni: Tasviriyy san'at tarixida o'rta asrlar san'ati katta ahamiyatga ega bo'ldi. Jahon tasviriyy san'atida odamlarning rasmini chizish doimo birinchi o'rinda turgan. Rassomlardan Leonorda Da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Tisian kabi o'yg'onish davrida ham odamning rasmini eng mukammal yaratgan edi. Faqatgina O'rta Osiyo xalqlarigina odam rasmini to'g'ridan chizmaganlar. Ammo bizning odamlarning harakatlari miniatyura san'ati uslubida yaratilgan asarlarda odamlar harakati aks ettirilgan.

Tasviriyy san'at asarlarini yaratishda jahon rassomlari Pablo Pikasso, Rakuel Kent, Roden, Pol Sezann, Van Gog, Antuan Burdel, Aristid Mayol, Sharl Desrio, Lotrek, Kete Kolvis, Frans Mazarel, Frank Brengvin, X.Berlaga, Renatto Gttuza, G.Ritvalo va boshqalar ijod qilmoqdalar. Bularning hammasining asarlarida odam asosiy mavzu bo'lib hisoblanadi.

Kamoliddin Behzodning miniatyuralarida "Shayboniyxon", "Siston jangi", "Navoiy" portretlari shular jumlasidandir. Buyuk rus rassomi I.Ye.Repin, Surikov, Konenkov, Fedotov, Serov, Vasnesovlar odam rasmini chizishda eng yuksaklikka ko'tarilgan edi. Sovetlar davrida ham aka-uka Tikechevlar, Avetov, Chuykov, Zardarayan, Vaselev va boshqalar.





O'zbekistonda

A.Abdullayev, Ch.Ahmarov,
R.Choriyev, J.Umarbekov,
B.Jololov, A.Isayev, N.Sultonov
va boshqalarning asarlarini
ko'zlash mumkin.

Harakatdagi odamning
rasmini chizish uchun ham uni
kompozision to'g'ri topishga
ahamiyat berish kerak. Biz siz
bilan bosqichli bajarilgan
rasmlarni ko'rib chiqamiz.

Birinchi bosqich – format
qog'ozga odam figurasining
to'g'ri joylashishini xisobga olish
bilan faqat bo'yi, enini belgilab
olamiz.

Ikkinchi bosqich –
odamning tayanch nuqtalarini
bilgilaganimizdan keyin uning
harakatlari ko'rinishini berishimiz
lozim.

Uchunchi bosqich – odam figurasining kiyimlari, harakat yo'nalishlari,
qarashlari ko'rsatiladi. Birinchi buyoqlarni berib olamiz.

Turtinchi bosqich – rasmning
soya va yorug'liklarini tasvirlash bilan
haqiqiy kurinishlarini berib olamiz.

Beshinchi bosqich – qog'ozdagi
odam figurasining barcha
kurinishlarini yakuniga yetkazamiz.
Bu tasvirlar hammasi grafik usulda
bo'lishi bilan harakterlidir.

**O'quvchilarning mustaqil
ishlari.** O'quvchilar suratni
chizayotganlarida o'qituvchi ularni
ko'zlash chiqadi va kamchiliklarga
yo'l quyilayotgan bo'lsa ularga
to'g'rilab olishlarida yordam beradi.
Ba'zi hollarda o'qituvchi chizib yo'l
ko'rsatib yuborishi ham mumkin.
Suratlarni iloji bo'lsa turli qattiq va
yumshoqlikdagi qalamlar bilan ishlab
o'rganilsa yaxshi bo'ladi. Bolalar
chizgan suratlar yakuniga yetgach
baholash ham mumkin.



Uyga vazifa: rassom asarlaridan yig'ish va mustaqil ravishda biron odam figurasini o'ziga qarab chizib kelish.

4 – DARS. MAVZU: LOY YOKI PLASTILINDAN HARAKATDAGI ODAM (FUTBOLCHI, KURASHCHI, VA HAOZA) GAVDASINI ISHLASH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarni haykaltaroshlik san'atining elementar asoslari bilan tanishtirish, loy va plastilinda odamni ishlashga oid bilimlarni shakllantirish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarning estetik tarbiyasini, ahloqiy va kurashchanlikka oid tushunchalarini uyg'otish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: loy va plastilindan sportchilarni tasvirlash hamda tushunishga oid bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** loy va plastilinda ishlangan sportchi haykallaridan namunalar, o'quvchilarning ishlari, turli bosqichli chizmalardan namunalar, foto suratlar.

B) o'quvchilar uchun: loy, plastilin, rasm daftar, ruchka, qalam, yozuv daftari, haykalchalardan foto nus'halar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan darsni baholash. 7 – 12 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 10 - 12 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 17 - 20 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solom-alikdan so'ng shu kunning muhim voqyealari, ob-xavo, san'atdagi yangiliklar to'g'risida qisqacha gapiriladi hamda odob-axloq masalalari yuzasidan o'quvchilarni yaxshi tomonlarini aytib uyga vazifani tekshirib chiqishi kerakligini e'lon qiladi.

O'tilgan darsni baholash: Hamma o'quvchilarning bajargan ishlari partalar ustiga ochiq holda qo'yiladi. O'qituvchi hamma ishlarni birma-bir ko'rib chiqadi va chizilganligiga qarab baholanmagan o'quvchilarning ishini olib chiqadi. Xatto hamma o'quvchilarning rasmlarini bir varakayiga baholash ham mumkin. Chizilgan ishning yaxshi va yomon taraflari albatta tahlil qilinishi shart. Shu kabi oldingi darsga bog'langan holda yangi dars uning davomi ekanligini, loy va plastilindan haykalchalar yasash mumkinligi o'g'risida qisqacha suhbat qilib olinsa yaxshi natija beradi.

Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'at tarixida o'rta asrlar san'ati katta ahamiyatga ega bo'ldi. Biz oldingi darsimizda o'rganganimizga qo'shimcha ravishda endi odam gavdasini loydan, plastilindan tayyorlashga harakat qilamiz. Lekin oldiniga biz butun dunyodagi buyuk haykaltaroshlarning kimligini ham aniqlab olishimiz kerak. Qadimgi haykaltaroshlarimiz Miron, Poliklet o'yg'onish davrida esa Mikelanjelo, Sharden, Shuben va rus haykaltaroshlari Konenkov, Muxina, Vichetuch, Tomskiy, Anikushinlarni misol keltirish mumkin.

Haykaltaroshlik sohasida O'zbekistondan Damir Ruziboyev, Ilhom Jabborov, Abdumumin Boymatov, Greshchenko, Turkman Esonov, Tulagan Yorqulov, Dektoryov, Bambiladze va boshqalarni keltirib o'tishimiz lozim.

Bularning asarlari to'g'risida boshqa darslarimizda yana ko'rib o'tamiz. Mustaqillikdan keyin sohibqiron Amir Temur haykalini haykaltarosh Ilhom Jabborov va Kamol Jabborovlar ishlagan edi.

O'quvchilarga mustaqil ishni o'rgatish uchun tayyorlangan karkasli odam gavdasining loydan yoki plastilindan tayyorlangan haykalchasini ko'rsatamiz. Shundan keyin biz karkas, stek, loy, plastilin, angoblar to'g'risida ozgina tushunchalarni qaytaramiz. O'quvchilar bilan savol-javob qilishimiz ham mumkin.


Birinchi bosqich – loydan figuralarni yasash tartibini qo'llab ko'rish.

Ikkinchi bosqich – ikkinchi darajali tomonlarini olib tashlash yo'llari.

Uchunchi bosqich – figuralarni aniq tasvirlashni o'rganishga yo'llash. Bosqichlar bilan o'quvchilarga loydan haykalchalarni ishlash yo'llarini ko'rsatgandan keyin mustaqil ishlashga izin beriladi.

O'quvchilarning mustaqil ishi: Mustaqil ishlash davomida shu ko'rsatilgan bosqichdagidek bolalar ham tasvirlashga harakat qiladilar. Bunda loy yoki plastilinni quyib ishlash uchun albatta taglik bo'lishi kerak. Uni oddiy panera bulakchasidan tayyorlab olish mumkin. Darsning oxirida bo'lsa bolalarning ishlarini ko'rib chiqib ba'zilarini baholash kerak. Yaxshi bajarilganini rag'batlantirib yutuqlari aytiladi. Agar ko'pchilik xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa qaytadan mavzuning muhim joylarini tushuntirib beriladi va xatolarga yo'l qo'ymaslikka davat etiladi. Shuningdek, o'quvchilar chizgan rasmlarida hamda yasagan haykalchalarida yangi yutuqni ko'rsangiz albatta uni rag'batlantirib o'tish lozim.

Uyga vazifa: o'quvchilarning o'zi mustaqil tarzda biror bir kurinishli figurani loydan yoki plastilindan ishlab kelishlari so'raladi. Shuning bilan birga haykaltaroshlar ishlagan foto rasmlardan yig'ishni maslahat beriladi.



5 – DARS. MAVZU: O'QITUVCHILAR VA MURABBIYLAR KUNIGA BAG'ISHLANGAN TABRIKNOMA ISHLASH

Darsning maqsadi: a) ta'limiy maqsadi: O'quvchilarning dekorativ amaliy san'at to'g'risidagi bilimlarini va tabriknoma ishlashga o'rgatish.

B) tarbiyaviy maqsadi: O'qituvchilarga hurmat, nafosat tarbiyasiga yo'naltirish, ahloqiy tushunchalar, vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning oldingi olgan bilimlarini, tabriknoma ishlashga bo'lgan tushunchalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** tabriknomalar chizilgan turli rassomlar ishlagan suratlardan namunalar, oldingi sinf o'quvchilarining chizgan eskizlaridan namunalar.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, yozuv daftari, tabriknomalarning foto nus'halaridan namunalar.

Darsning rejasi:


1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. Oldingi darsda o'tilgan larni surab baholash. 7-10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 10 - 13 daqiqa.
4. Mustaqil ishlash. 15 - 20 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashiladi. Yo'qlama qilinadi. Navbatchi bilan darsning tashkiliy qismini bajaradi. Doskani rasm chizishga tayyorlaydi. Ko'rsatmali materiallarni olib kelib qo'yadi. Sinfning tozaligini taminlaydi.

Oldingi darsda o'tilganlarni surab baholash: Uyga berilgan loy va plastilindan bajarilgan odam figuralarini ko'rib chiqiladi va ularni yaxshi yoki yomon bajarilganini tahlil qilib baholanadi. Baholashda albatta har bir ishdan yutuq topishga harakat qilinishi lozim. Chunki har bir bola tasviriy san'atda o'ziga xos qobiliyatga ega bo'ladi. Ba'zida biz sezmagani holda juda mazmunli lekin, beuxshov obrazlar paydo bo'lishi mumkin. Agar noto'g'ri baholab qo'yilsa bolalarning ruhiyatiga ta'sir etadi. Mening qo'limdan umuman rasm chizish kelmas ekan degan noto'g'ri fikrlar o'tishi mumkin.

Yangi darsning bayoni: O'qituvchilar va murabbiylar kuniga atab tabriknoma eskizini ishlash darsida o'quvchilarga 1 – oktyabr “O'qituvchilar va murabbiylar kuni” deb nishonlanishi to'g'risida gapirib beriladi. Yaqinginda butun O'zbekiston xalqi bu kunni bayram qildi. Xuddi shu bayram tufayli bir kun hamma xursandchilik qiladi. O'qish, ishdan dam oladilar. Chunki Prezidentimiz bu kunni dam olish kuni va bayram deb qaror chiqargan edi. Bu bayramga atab har bir o'quvchi devoriy gazeta, foto montaj chiqarganlar. Endi butun sinfimiz bo'yicha tabriknoma eskizini tayyorlashimiz lozim.



Qani kim aytadi eskiz nima degani?

Eskiz – biron rasmning xomaki, tugatilmagan tasviri xisoblanadi.

Chizmachilikda esa bu hyech qanday chizma asboblari siz qo'lda bajarilgan chizmadir.

O'qituvchilar kunini qachondan boshlab bayram qila boshladik?

1993 yildan boshlab bu kunni bayram sifatida nishonlamoqdamiz. Oldinlari ham oktyabrning birinchi haftasi bayram deyilgan edi. Ammo bu kun ish kuni bo'lib qolavergan.

Tabriknomada qanday kurinishlar bo'lishi mumkin?

Oddiy varaqda bo'lsa ham u naqshlar, gullar, odam figuralari bilan dekorativ bezatilishi lozim. Shu kabi savollar bilan mavzuni to'ldirib borish mumkin.

Tabriknomaning eskizlaridan namunalar ko'rsatib uning chizilish yo'llarini bosqichma-bosqich doskada chizib ko'rsatiladi. Oldindan tayyorlangan bosqichli kursatmali qo'rolni ham doskada tushuntirib beradi.

Birinchi bosqich. Avvalo daftar varag'iga to'g'ri joylashtirib olinishi lozim. Uning chetki chiziqlari, eni, buyi, gullarning va yozuvning joylari belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda. Oldingi belgilangan joylarni to'g'ri ekanligiga ishongach chiziqlar aniqlashtiriladi va gullarning kurinishi asl holatiga uxshatiladi. Rang berish uchun tayyorlab qo'yiladi.

Uchunchi bosqich. Tabriknoma eskizini birinchi ko'rinishda ranglashdan boshlaydi. Bunda akvarel buyog'idan yoki guvashdan foydalaniladi.

Turtinchi bosqich. Chetki chiziqlar va xoshiyalarni bajarish mumkin. Shuningdek tabriknoma va murabbiylar kuni kabi yozuvlar chiroyli qilib turli buyoqlardan foydalangan holda yozib ish tugatiladi.

Buning uchun sinf o'quvchilarining hammasi tabriknomani biror bir eskizini chizish kerak. Darsda tabriknomani asl kurinishini qogozga chizishimiz bolalarni bayramni xis qilishga o'rgatadi. Tabriknoma sinf ukuvchilari tayyorlagan eskizga karab tayyorlansa chiroyli bular edi. Buni kanday amalga oshirish kerak ekanligini bolalarni chizgan eskizidan ham ajratib olamiz. Chunki bolalar bilan turli elimentlarni chiroyli chizish kerak. Biri gullarni chiroyli chizadi biri esa savotchalar chiroyli chizadi, biri esa yozuvni chiroyli yozadi, biri esa sherlarni yaxshi biladi. Agar sinf ukuvchilari ko'pchilikni tashkil etsa ularni ikki guruxga bulib qaysi guruxni tabriknomasini chiroyli chiksa maqtav oladi. Tabriknomani sinf buyicha birgalikda yasaymiz va maktabimizning barcha o'qituvchilarini tabriklaymiz. Hamma o'quvchilar ish bilan band bo'lishi lozim. Bu birinchi shart desak ikkinchi sharti esa ichiga bitta ma'noli she'r yozishimiz kerak. Buni kanday kilamiz, o'quvchilarning ayrimlari rasm chizsa ayrimi sher yozar edi shu o'quvchilarimiz sher yozadi eng yaxshi she'ni biz tabriknomaga yozamiz. Uchinchi shartimiz chiroyli yozadigan o'quvchilarimizga buladi eng chiroyli yozgan o'quvchimizning yozuvi tabriknomaga tushadi. Turtinchi shartimiz shu yuqoridagilarni jamlash buladi: va tayyor eskizni kuramizda qaysi gurux o'quvchilarining tabriknomasini yasashni aytamiz.

Mehr nuri yog'ar doim yuzingizdan ustozlar,

Yursam deymen shu tabarruk izingizdan ustozlar.

Shunga uxshash sher hamda chiroyli yozuvlar bilan bezatamiz. 1-OKTYaBR o'qituvchilar bayrami deb yozamiz va gullar rasmini chizamiz.

O'quvchilarni baholash: baholash uchun o'quvchilarda eskizlar xam bor va yakuniy tabriknomadan guruh ishi ham bor. Ishtirokida va chizmasiga karab ballarni belgilanaviradi. Tabriknomani taxlil kilib xam baxolash mumkin. O'quvchilarning asosiy qismi ragbatlantiriladi.

Topshirik: O'qituvchilar va murabbiylar kuni bayramiga atab turli kurinishlarda tabriknoma eskizi chizishni o'rganish. Dekarativ san'at yuzasidan ma'lum bilimlarni o'zlashtirish.

Uyga vazifa: Ustozlar va murabbiylar kuniga atab tabriknoma eskizini chizish. O'stozlarni tabriknoma yasab 1-OKTYaBR kuni bayrami bilan tabriklanadi.

6 – DARS. MAVZU: 1-MSNI. TURLI BADIY-GRAFIK (AKVAREL, QALAM, GUASH, PLASTILIN YOKI LOY HAKOZA) USULDA HARAKATDAGI ODAM GAVDASINI ISHLASH

Darsning maqsadi: a)ta'limiy maqsadi: O'quvchilarning tasviriy san'atidan birinchi chorak davomida olgan bilimlari, ma'lumotlarini o'rganish, grafika san'atida harakatdagi odam gavdasini ishlashga o'rgatish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat tarbiyasi qirralarini, hislarini uyg'otish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: tasviriy san'atda odam obrazi asosiy obyekt ekanligi va grafikada rasm chizish malakalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a)o'qituvchilar uchun: rassomlarning grafikada ishlangan rasmlari, o'quvchilarning loy, plastilin, tush, akvarel kabi materiallar bilan ishlaridan namunalar.

B)o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, akvarel, yozuv daftari, rasmlarning foto nus'halaridan namunalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 3 daqiqa.
2. Yangi dars bayoni. 10 - 12 daqiqa.
3. O'quvchilarning mustaqil ishlari o'tilgan oldingi darslar mavzusiga oid bilimlarini tekshirish. 25 - 30 daqiqa.
4. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashib yo'qlama qilinadi. Bolalarning rasm chizishga bo'lgan kayfiyatlari o'rganiladi va odamlarni ko'zlatishga oid takliflar o'rta tashlanadi. Masalan: Odamning tayanch nuqtasi qayrda bo'ladi, shuni o'rganing?! Agar odam egilib turganda – chi? Yugurib ketayotganda qanday bo'ladi? Kurash tushganda – chi? va kakoza.

Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'atda grafikada, rangtasvirda, haykaltaroshlikda ham odam obrazi rassomchilikning asosiy tasvirlash obe'kti ekanligini hamma biladi. Lekin harakatdagi odamni tasvirlash ancha murakkabdir. Biz bugun 1 – MSNI o'tkazamiz va unda barcha o'quvchilar o'zlarining grafik usulda yoki loy va plastilindan harakatdagi odam rasmini chizishi hamda yasay olishlarini namayon etishlari lozim.



Bunda o'quvchilar hohlagan usulda ya'ni, grafikada yoki rangtasvirda harakatdagi odamning tasvirini bajaradi. Qanday tasviriy san'at materiallaridan foydalanish ularning ihtiyoqidir. Kim yuqori o'zlashtirishga erishmoqchi bo'lsa bor mahoratini ko'rsatib chizishlari, yasashlari, tasvirlashlari kerak bo'ladi. Bu darsda mavzuni alohida qayta tushuntirib o'tish shart emas. Chunki oldingi darslardagi o'tilganlarning bu takrorlanishidir.

O'tilgan oldinga dars mavzusiga oid bilimlarni tekshirish: O'quvchilarning uyda va oldingi darsda chizib kelgan suratlarini o'rganib chiqib va ularni dimonstrasiya usulida ko'rsatib xato va kamchiliklari, yutuqlari tahlil qilinadi. Suratning tahlilida o'quvchilarning o'zlarini ham faol qatnashtirish lozim. Baholanadi va u kundaliklarga ham qo'yiladi.

Uyga vazifa: O'quvchilar birinchi chorakdan keyin tatilga chiqadi. Shuning uchun o'tilgan mavzularga doir bolalar hoxlagan biron mavzuga oid rasmni chizib kelishi yoki loy va plastilindan yasashlari mumkin. Tatildan qaytgandan keyin bajargan ishlari bo'yicha suhbat bo'lishi mumkin.

7 – DARS. MAVZU: TURLI BADIY MATERIAL VA TEXNIK VOSITA, USULDA (RANGTASVIR, QALAMTASVIR, HAYKALTAROSHLIK IXTIYORIY TANLANADI) 2-3 FIGURALI MAVZUIY KOMPOZISIYA (SPORT, MAISHIY HAYOT, SAN'AT VA HAKOZA) ISHLASH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga tasviriy san'atning kompozisiya tuzish yo'llarini, odamlarning ko'p figurali ko'rinishlarini tasvirlashni o'rgatish

B) tarbiyaviy maqsadi: ahloqiy, mehnat, nafosat tarbiyasi masalalarini anglatish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: rangtasvirda rasmlar ishlashga oid bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** rassom asarlaridan I.Ye.Repinning “Yana ikkimi?”, V.A.Serovning “Shaftoli ushlagan qiz”, R.Ahmedovning “Onalik” kabi asarlar reproduksiyasi.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, qalam, akvarel, turli rassom asarlarining foto nus'halaridan namunalari.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. Tatil vaqtida bajarilgan ishining tahlili. 5 – 7 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 10 - 12 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 20 - 25 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashib ularning darsga tayyorgarligini, yo'qlama, jurnalga yozish kabi ishlar bajariladi.

Tatil vaqtida bajarilgan ishlarning tahlili. O'quvchilar uyda chizgan, loydan yoki plastilindan tayyorlagan rasm, haykalchalarini partalar ustiga qo'yib qo'yishi so'raladi. Ularni o'qituvchi birma-bir hammasini ko'rib chiqadi. Eng yaxshi chizilganlarni, o'rtachalarini, yaxshi bo'lmaganlarini tahlil qilinadi. Tahlil qilingan vaqtda o'quvchilarning ishlarini iloji boricha yutuqlarini topib maqtash kerak. Daftar varag'iga hammaga baho qo'yish mumkin.

Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'atning bu yo'nalishida rasm ishlash masalasi biroz murakkab bo'lib odamlarning bir nechtasi tasvirlanishi kerak. Har bir

figura o'ziga xos kurinishlarga ega bo'lishi lozim. Chunki biz endi mavzuli kompozisiya tuzish yo'llarini o'rganamiz va suratlarimizda ma'lum mazmun, ma'no bo'lishi kerak. Shuning uchun ham kompozisiyada tabiatning ko'rinishi, xona ichkarisining, biron ish bilan bandlik xolatlari aks etishi mumkin.

Buyuk rusiya rassomi I.Ye.Repinning "Yana ikkimi?" degan asarini o'rganib ko'raylik. Surat kompozisiyasi jihatidan biroz sodda, lekin surat hammani o'ylantirib qo'yadi. Ikki baho olib kelgan o'quvchining turish xolati bir oz kulgili ham. Ona obrazini kursangiz uning o'g'liga achinish bilan qarab turganini ko'rasiz. Erkalanayotgan kuchukchasi esa uning xafachiligiga sherikdek,



buladida xafa bo'lma dyyoyatgandek tuyiladi. Asarning mazmuni o'quvchilarning o'qishda yaxshi o'qishi kerakligini targ'ib qilishga borib taqaladi. Agar kim yaxshi o'qimasa shunday buyini egilib qoladi. Hammaning oldida uyaladi demoqchi.

Yana qanday mazmunlarni siz o'qimoqdasiz? Deb o'quvchilarning o'zlarini ham suhbatga tortish mumkin.

Savollarni tuzishni ham o'quvchilarning o'zlari orqali amalga oshirilsa yanada yaxshi bo'ladi. O'quvchilarga grafikada, rangtasvirda, loy yoki plastilinda bo'lsan kompozisiyani tasvirlaganda qo'yidagi kabi chizmalarga e'tibor berilishi lozim. Lekin obrazlarni, mazmun va ma'noni o'quvchilarning o'zlari topsin. Bunda oddiy yuguruvchi sportchilar, kurashchilar, gimnastikachilar, dehqonlar, dala ishchilari, bozorchilar, sovdo xodimlari, o'quvchilar va boshqalarni olish mumkin.

Ko'rgazmalarni qo'yib kursatish, tushuntirish kerak. Keyin esa uning bosqichli chizilishini doskada kursatib berilsa yaxshi bo'ladi.

Birinchi bosqich – faqat format qog'ozining yuzasiga to'g'ri kamponovka qilish, joylashtirish, tayanch joylarni, o'rinlarini belgilash. Buyi, eni, ufq chizig'i, sof va yorug'liklarning o'rni qalam bilan belgilab olinadi.

Ikkinchi bosqich – Ancha tayyopr holga kelgan suratni aniqlashtirish va materialliklarni, joylarning fazoviy o'rnini to'g'ri topib olish.

Uchunchi bosqich – Birinchi buyoqni berish uchun tayyorlash, yorug' va soya urnlarini oldiniga ochiq rang bilan buyosh.

Turtinchi bosqich – Tasvirni asl holatiga olib kelish uchun uning bir-biriga kontrast ranglarni va materiallarni ranglash. Rang berilganda biror ochiq buyoq tegmagan joy qolmasligi kerak.

Beshinchi bosqich – Oxirgi bosqichda ranglarni tuliq quyish va hamma narsalarni, odam figuralarini asl holatiga olib kelish.

Suratni ishlab kursatib bo'lingandan keyin uni ko'chirish emas balki o'quvchilarning o'zlari uncha chiroyli bo'lmasada ishlashlari kerakligi aytiladi va doskadagi chizmani yopib, kursatmali qurolni olib quyiladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari. Savol-javoblardan, tushuntirib bo'lingandan keyin o'quvchilarga mustaqil ishni boshlashlari mumkinligi aytiladi. Mustaqil ish davomida bolalar ishni yaxshi hammasi boshlab olgunga qadar, besh daqiqacha vaqt halaqt bermay o'qituvchi o'zining ishini bajarib olishi mumkin. Shundan so'ng o'quvchilarning ishlarini o'qituvchi partalar oralab ko'rib yuradi. Kim to'g'ri bajarayotgan bo'lsa tez-tez hammaga ko'rsatib rag'batlantirib boradi. Hatto ba'zi tez va yaxshi bajarayotgan o'quvchilarni baholashlari mumkin.

Agar ko'p xatoga yo'l quyilayotgan bo'lsa o'qituvchining o'zi uni qayta tushuntirib o'tishi lozim bo'ladi. Ba'zida o'quvchilarga yakka tartibda yordam berib boradi. Dars davomida joyni toza tutish, buyoqlarga ehtiyot bo'lish, atrofdagi do'stlarini hurmat qilish kerakligi o'qitirib turiladi.

Darsning yakuni va uyga vazifa. Tugata olmagan o'quvchilarga uyda yakunlash va qo'shimcha surat ishlash, rassom asarlaridan olib kelishni vazifa qilib topshiriladi.

8 – DARS. MAVZU: BADIY BEZAK GRAFIKASI (PLAKAT, SHIOR, MAVZULI DEVORIY GAZETA, ETIKETKA, EMBILEMA VA BOSHQA) NAMUNALARINING ESKIZINI ISHLASH

Darsning maqsadi: a)ta'limiy maqsadi: grafikada rasm chizishga oid bilimlarini oshirish;

B) tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni ahloqiy, estetik, vatanparvarlik ruhda tarbiyalash;

V) rivojlantiruvchi maqsadi: oldingi olgan bilimlari va tushunchalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a)o'qituvchilar uchun: plakat, devoriy gazeta, gerb va boshqalarning tasviriy ko'rgazmasi, doska, bur, latta va boshqalar;

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, yozuv daftari, rasmlarning foto nus'halaridan namunalar, flamaster, rangli qalamlar va boshqalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan dars mavzusini baholash. 7 – 10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 10 - 15 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 15 - 20 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashib ularning ruhiy xolatini aniqlanadi. Navbatchi orqali yo'g'qlama qilib olinadi. O'quvchilarning tartib va qoidalari to'g'risida qisqacha gapirib tartibga chaqiriladi. Shu kunning muhim voqyealari, yangiliklar to'g'risida suraladi. Oldingi darsda berilgan uy vazifasini partalar ustiga qo'yish kerakligi talab qilinadi.

O'tilgan dars mavzusini baholash. Partalarga qo'yilgan o'quvchilarning ishlarini ko'rib chiqiladi va ulardan bir qanchasini olib chiqib doskada kurgazmali tarzda tahlil qilinadi. Tahlilni o'quvchilarning faolligida o'tkazish kerak. Ularni faqat bahosini aytib qaytarib berish hyech qanday natija bermaydi. Ishdagi to'g'ri va noto'g'ri tomonlari kursatib berilsa uning ta'limiy hamda tarbiyaviy ahamiyati

ko'proq bo'ladi. Agar o'quvchi chizmagan bo'lsa uni sababi so'qraladi va o'qituvchi birinchi martoba bo'lsa yordam berishi mumkin. O'g'xlantirib keyingi safar qaytarilmasligiga so'z olinadi. Tasviriy san'atning murakkab fan ekanligi, boshqa fanlarni busiz o'rganish qiyin bo'lishi ham aytib o'tiladi. Hammani daftariga baholar qo'yilishi mumkin. Keyin esa yangi dars mavzusi e'lon qilinib doskaga yoziladi. Unutmaslik kerakki bolalar rasm chizidigan daftarga mavzuni ham kunni ham yozmasligi kerak. Chunki bu komponovka qilishda suratlarni buzadi.

Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'at keng qirrali bo'lib unda hamma borlig'dagi narsalar aks etadi. Plakat suratlar tashviqot, targ'ibot vazifasini o'taydi. Geraldika esa gerblar, nishon sifatida har bir narsalarda, davlatning belgisi sifatida ham qaraladi. O'zbekiston gerbini rassom Anvar Mamajonov chizganini bilasiz. Shu kabi dekorativ amaliy san'at deb hisoblanadigan badiiy bezak grafikasi nihoyatda xilma-xildir.

Oddiygina maktabda sinf devoriy gazetasini chiqarish. Bunga tasvirlanayotgan turli rasmlar, bezaklar, naqshlar, yozuvlar hammasi badiiy bezak grafikasiga misol bo'ladi. Maktab devoriy gazetalarning turlari quyidagichadir. 1.umummaktab devoriy gazetasini; 2.Tanqidiy devoriy gazeta; 3.o'quv predmetlari va tugarak devoriy gazetalari; 4.Sinflarning devoriy gazetasini; 5.foto montaj, chaqmoq, qalampir, mastihin, jangovor devoriy varaqalarga bo'linadi. Bu devoriy gazetalarning har biri o'ziga xos tasvirlanadi. Shular haqida gapirib berish lozim.



Umumiy maktab devoriy gazetasining bosh maqolasi, maktab tashkilotlarining hayoti, maktabdan tashqari hayotga doir zarur habarlar, adabiyot va san'at bo'limi, tanqidiy bo'lim, sport bo'limi, qiziqarli faktlar, savollar va javoblar berilishi mumkin.

Shu kabi turli grafik chizilgan ishlardan misollar ko'rsatiladi. Dorskada bir necha elementlari chizib beriladi. O'quvchilarning o'zlaridan ham dorskada chiqarib chizdirishga ruxsat beriladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari. Mustaqil ishlash davomida o'quvchilar o'zlarining sinf emblemasini, maktab gerbini chizishlari ham mumkin. Yoki devoriy gazeta nus'hasini biror bir bayram, tarixiy sana, tug'ilgan kunga bag'ishlab chizishlari mumkin.

O'qituvchi ularning qanday bajarayotganlarini kuzatib boradi va o'quvchilarni doimiy o'zlashtirishlarini nazorat qiladi. Bu ishlar vaqtida ba'zi o'quvchilarning ishlarini baholash ham mumkin.

Berilgan vazifalarni chizib bo'lgandan keyin vaqt ko'proq qolsa savol va javoblar ham qilib darsni mustahkamlash mumkin.

Uyga vazifa: Grafik surat chizishni mashq qilish va sharq me'morchiligi, miniatyura san'atiga oid materiallarni o'rganib kelish, suratlar yig'ish.

9 – DARS. MAVZU: SHARQ ME'MORCHILIGI SAN'ATI. MINIATYURA SAN'ATI TARIXI HAQIDA SUHBAT HAMDA REPRODUKSIYALARNI TAHLIL ETISH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarni tarixiy me'moriy yodgorliklar bilan tanishtirish, o'tmish me'morchiligimizning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni madaniy, tarixiy boy merosimizga xurmat, kelajak avlodga me'moriy yodgorliklarni avaylab asrashga yo'naltirish va tarbiyalash.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: sharq me'morchiligidagi o'ziga xos me'moriy atamalarni mukammal o'rganish.

Darsni jihozlash: kuhna Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Toshkent kabi shaharlarning rangli foto suratlari, al'bomlar, me'moriy obidalarning foto nusxalari, reproduksiylari.

Darsda foydalaniladigan metod va texnologiya: Xikoya, dimonstrasiya, suhbat, bahs-munozara.

Darsning borishi.

1. Tashkiliy qism. 3-5 daqiqa.

Darsning bu qismida o'quvchilarning darsga tayyorgarligi, ruhiy holati, sinfning tozaligi, hammaning borligi o'rganiladi. Oldingi darsda bajargan mavzu va uy vazifasi bo'yicha qilingan ishlar tahlil qilinadi. Buning uchun ham guruhni bir nechtaga bo'lib olish lozim. Agar o'quvchilar kupchilikni tashkil etsa turtta guruhga, kamroq bo'lsa uchta yoki ikkita guruhga bo'linadi va ularga nom qo'yiladi. Turli xil rangda baholash uchun kartochkalar tayyorlanadi. Sardor belgilanadi va oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar, testlar, krassvordlar, ma'ruzalar bilan o'quvchilarning bilimlarini aniqlanadi.

2. O'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimini aniqlash. 7-10 daqiqa.

Grafikaga oid terminlardan tuzilgan savollar.

Plakat chizish haqidagi ma'lumotlar.

Gerb yoki geraldika to'g'risida suhbatlar.

Tasviriy san'atga oid testlar.

Miniatyura san'atiga xos krassvordlardan foydalanish kerak bo'ladi.

Me'morchilik to'g'risida foto materiallar va ularning nomlari.

3. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi bilan tanishtirish. 5-7 daqiqa.

Darsda sharq me'morchiligi va miniatyura san'atini puxtarroq o'rganish uchun bu dars mavzusi qo'yilgan. Chunki bizning tariximizda o'tmish odamlarimiz, xalqimiz boy tarixga ega. Shularni me'morchilikda, miniatyura san'ati, dekorativ amaliy san'at orqali bizgacha qoldirib ketgan. Hammamiz shular haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz, ulardan g'ururlanishimiz lozim. Bu bizning vatanparvarlik burchimizdir.

4.Yangi mavzuni o'rganish bo'yicha o'qituvchining axborati. 5-10 daqaqa.

Darsning rejasi.

1.O'zoq o'tmishda qolgan tarixiy shahriston tepaliklar.

2.O'rta asrlar O'zbekiston me'morchiligi.


3.Sharq me'morchiligida ishlatiladigan atamalar.

4.Xozirgi zamon ilg'or me'morchiligi.

Ona vatanimiz tuprog'ida ajdodlparimizdan ko'plab me'moriy yodgorliklar yetib kelgan. Biz ajdodlarimizning bunday nodir obidalari bilan faxrlanamiz va ularning kelajak avlodlar uchun avaylab asrashimiz lozim. Ulkamizdagi obidalarini ko'rgani xar yili chet ellardan minglab sayyohlar keladilar. Samarqanddagi Afrosiyob tepaligi. Buxorodagi Varaxsha, Termizdagi Dilvarzin tepa, qadimiy Xorazimda Ayoq tepa, Burgut qala, Quy qirilgan qala singari ulkamizdagi kuxna shahar, qala



mumalada ishlatilmoqda. Yangi avlod vakillari me'morchiligimizdagi ko'uplab atamalarini puxta o'zlashtirishlari lozim.



xarobalari, Vatanimiz tarixini ming-ming yillarga borib yetishidan dalolat beradi. Bu yil yurtimizda Qarshi shahrining 2700 yilligi, kuxna Samarqandning esa 2750 yilligi keng nishonlandi. Poytaxtimiz Toshkent shahrining 2200 yilligi nishonlanish arafasida. O'rta asrlarda Movaraunahr tuprog'ida ko'plab davlatlar mavjud bo'lgan. Amir Temur davri va undan keyingi davr asrlarda Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Turkiston, Shahrisabz kabi yirik shaharlarda ulkan me'moriy inshootlar bunyod etilgan. Saroylar, madrasalar Jomiy masjidi, qurg'onlar qurilgan. Amir Temur va uning avlodlari Turon zamin xududida ko'plab bunyodkorlik va obodonchilik ishlarinin olib borishgan.

Sharq me'morchiligi atamalari bugungi o'zbek so'zlashuv tilida kam

Madrasa, maqbara, sug'ana, minora, masjid, Jomiy masjid, saroy, qasir, karvon saroy, kushk, Sardoba, koriz, koshin, peshtoq, mehrob, ark, chorsu, gumbaz.

Mamlakatimizda keyingi davrlarda zamonoviy me'morchilik bilan birga turli xil xalq xujaligi inshootlari kommunikasiyalari bunyod etilmoqda. Nukus, Uchquduq, Navoiy hamda G'uzor, Boysun, Termiz temir yullari, Toshkent, Namangan avtomobil yo'li hamda paytaxtimizdagi kupriklar qurib ishga tushirilmoqda. Mustaqilligimizdan sung Toshkent, Samarg'qand singari yirik shaharlarimiz uzgacha kurk berib tarovat etdi. Paytaxtimizda Alisher Navoiy nomi bilan milliy bog', Amir Temur muzeylari qurib bitkazildi. Mustaqillik maydoni qayta loyihalanib timirlandi. Toshkent metrosining yangi Yunusobod yo'nalishi ishga tushirildi.

O'quvchilarni yangi mavzu yuzasidan bilimlarini surab baholanadi.

Test topshiriqlari, savollar, krassvordlar guruhlariga bo'lib beriladi va ularning javoblari doskada baholab boriladi. Har guruhdan sardorni saylab olish mumkin. Guruhlarni ajratayotganda turli usullarni qo'llash mumkin. Sanatish bilan masalan, bir, ikki, uch, turt va takror. Yoki jiribovka usulida. Loto usulida va xakoza. O'quvchilar uyda o'rganib kelganlari, darsdagi bilganlari hammasi takrorlanadi.

Uyga topshiriq etib tarixiy obidalarimiz haqida rivoyat, asarlar o'rganish, shuningdek, ularni foto suratlarini to'plab borish topshiriladi.

10 – DARS. MAVZU: SHARQ MINIATYURA SAN'ATI ASARLARI NAMUNALARINING ELEMENTLARI (DARAXT, SUV, TOG', TOSH, HAYVONLAR, GULLAR, ODAMLAR VA HAKOZALAR)DAN NUSXA KO'CHIRISH

Darsning maqsadi: a)**ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga sharq miniatyura san'ati to'g'risida ma'lumotlar berish, milliy san'atimizning muhim tomonlarini o'rgatish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat tarbiyasiga yo'naltirish, milliy qadriyatlar, ahloqiy tushunchalar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: Sharq miniatyura san'ati asarlarini tushunishga oid bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a)**o'qituvchilar uchun:** A.Navoiyning "Xamsa", Nizomiyning "Xamsa", Fizuliyning "Zafarnoma" asarlariga ishlangan miniatyuralar, zamonoviy miniatyura asarlari, Samarqand me'morchiligidagi miniatyura namunalari.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, yozuv daftari, rasmlarning foto nus'halaridan namunalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 3 daqiqa.
2. O'tilgan oldingi darsni baholash. 5 – 8 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 8 - 12 daqiqa.
4. Mustaqil ish. 12 – 20 daqiqa.
5. O'quvchilar bilan savol - javob. 5 - 10 daqiqa.
6. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.


Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashi davomat aniqlanadi. Shu kunning voqyealari, ob-havo to'g'risida gapirib beriladi va sinfning tozaligi, navbatchining mehnati kuzatiladi, lozim topilsa maqtab quyiladi.

Oldingi darsda o'tilganlar bo'yicha baholash. Suhbat, munozara, bahs tarzida tashkil qilinsa yaxshi bo'ladi. Chunki oldingi darsda sharq me'morchiligi va miniatyuralar to'g'risida gaplashilgan edi. Kim darsda faollaroq qatnashadi, tez fikr yuritadi, asarlarning tahlilini to'g'ri beradi, testlarga, krassvordlarga javobni to'g'ri topadi. Bularning hammasi rag'batlantiriladi va baholanadi.

Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'at sharq mamlakatlarida miniatyura va amaliy ko'rinishda hamda me'morchilikda rivojlangan. Bular haqida oldingi darsda to'liq o'rganib chiqqanmiz. Endi xuddi shu kabi biror miniatyurachi rassomlarning asarlaridan bir qismini olib kuchirib chizishimiz mumkin. Chunki kuchirib chizish orqali miniatyura san'atining nozikligini, ranglarning nafisligini xis qilamiz

Asarlardan nus'ha kuchirish masalasi ham juda murakkab hisoblanadi. Shuning uchun tasviriy san'at darslarida alohida nus'ha kuchirish darslariga soat ajratilgan.

Bugun tayyor chizilgan rassomlarning asarlaridan ba'zilarini o'rganib olamiz va uning yoqqan joflaridan bir qismini kuchirib chizamiz. Albatta kuchirganda ham u kichkina bo'lib qolmasligi, balki format qog'oz varag'ida chiroyli joylashishi lozim. Bunga miniatyuradagi gullar, toshlar, daraxtlar, xayvonlarning kurinishi, tog'lar, qirliklar, odamlar va xakozalarni olishimiz ham mumkin. Nus'ha kuchirishda bir necha usullar bor.



1. Suratni katakchalarga olib uni bir necha marotaba kattartirib olish;
2. Suratning ma'lum bir joyini belgilab olib unga qarab o'zidek qilib kuchirish;
3. Suratga qarab ham shu belgilangan joyni o'ziga nisbatan bir necha marotaba katta qilib kuchirish;
4. Suratdagi kuchiriladigan qismni serkul yoki ip orqali kattartirib ishlash;
5. Suratni koperovka qog'ozidan foydalangan xolda kuchirish;
6. Suratni epidoskop yordamida kuchirish.

Bularning xar birida ham albatta rasm chizuvchi uning rangini, kompozitsiyasini to'g'ri belgilab olishiga to'g'ri keladi. Aks holda xech qanday ish meyyorida kechmayda va surat o'z holiga uxshamaydi. Kuchirishdan maqsad shu uslubni bilib olish, ranglarni to'g'ri quyishni o'zlashtirishdir.

Mustaqil ish.

O'quvchilar mustaqil ishlari davomida belgilangan suratning bir qismini kuchirib oladilar va uni o'zidek qilib ranglashga o'tadilar. Bu vaqt davomida o'qituvchi hamma o'quvchilarning ishlarini kuzatib boradi va kamchilikka yo'l quyayotgan bo'lsa uni vaqtida to'g'rilashga yordam beradi.

O'quvchilar bilan savol-javob.

Materiallarni o'zlashtirish davomida o'quvchilar bilan savol-javoblar qilish mumkin. Chunki bu dars kuchirish va miniatyura san'atini chuqurroq bilishga qaratilgan. Savollar qo'yidagicha bo'lishi mumkin.

Miniatyuraning ma'nosi nima?

Nimaga miniatyurada perspektiva bo'lmaydi?

Suratning o'rtasida qanday surat turadi?

Miniatyuralarda nima uchun ranglar bir xillikda olinadi?

Nega hamma obrazlar bir joyning o'zida kursatiladi?

Bu tasviriy san'at janri boshqa janrlardan qanday farqlanadi?

Bu kabi savollar oldindan tayyorlab quyilsa yaxshi bo'ladi va o'quvchilarning partalariga kartochka sifatida tarqatib berilsa o'quvchi javoblarni surat ishlash bilan bir qatorda topib javob berishga intiladi.

Uyga vazifa. Miniatyura san'atiga oid rasmlarni o'rganish va birontasida nus'ha kuchirib kelish.

11 – DARS. MAVZU:DARSNING MAVZUSI: O'ZBEK XALK ERTAKLARI SYUJETI ASOSIDA MINIATYURA USULIDA ILLYUSTRASIYA ISHLASH

Darsning maksadi: a) **ta'limiy** - o'quvchilarni tasviriy san'atning o'zbek xalq ertaklari syujiti asosida miniatyura ishlash haqidagi tushinchalarni o'rgatish.

B)tarbiyaviy - o'quvchilarni erkin fikrlashga yo'naltirish, axloqiy, estetik tarbiyasini shakllantirish.

V)rivojlantiruvchi - o'quvchilarning mustaqil holda ertak mazmuniga moslab rasm chizish malakalarini rivojlantirish.

3. Darsning jihozi:

a) o'qituvchi uchun: Mavzuga oid kursatmali materiallar, oldingi o'quvchilarning ishlaridan namunalar, krasvordlar, ishlarni kursatish uchun ekran va boshqalar.

b) O'quvchilar uchun: Rasm daftar, buyoq, qil qalam.

Darsning usuli - noan'anaviy;

Sinf o'quvchilarini iliq, samimiy, ijodiy kayfiyatini xosil qiluvchi guruhlariga bo'lish, darsga tayyorgarlik. 3-5 daqiqa yangi mavzuni oldingi bilan bog'lab borishiga oid turli savollar testlar, 10-12 daqiqa.

1. Kamoliddin Behzod qanday rassom bo'lgan?

2. Xoshiya san'atning qaysi turida ishlatiladi?

3. O'zbekiston xalq rassomlari nomlarini sanab bering?
4. Sharq miniatyurachi rassomlari kimlar?

TEST.

1. Qaysi qatorda K.Behzod yashab ijod etgan shaharlar to'g'ri ko'rsatilgan?
 A) Andijon, Istanbul
 B) Astrabod, Qobul
 V) Buxora Dehli
 D) Xiro, Tabriz
2. Tasviriy san'atning miniatyura janrida nimalar tasvirlanadi?
 A) naqshlar.
 B) Geometrik shakllar
 V) Tabiat kurinishlari
 D) Hammasi to'g'ri
3. Suvda eriydigan buyoqlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
 A) Rangli qalam, guash
 B) Akvarel, guash
 V) Moybuyoq, akvarel
 D) Rangli qalam, akvarel.

Mavzuga oid rasmni chizish. Ish daftariga, doskada guruh bilan jamoa bo'lib miniatyura usulida illyustratsiya yaratish. 10-12 daqiqa

Bajarilgan ishlar yuzasidan guruhlarning bajargan ishlarini tahlili. 3-9 daqiqa.

Mavzuga oid testlar 3-5 daqiqa, sardorlarga bosh qotirma bajartirish. Bu oldindan tayyorlab olinadi. 4-6 daqiqa

Xulosa, uyga vazifa 3-4 daqiqa.

Mashg'ulotning borishi.

Assalomu-alaykum aziz o'quvchilar, samimiy salom alikdan so'ng darsga kelgan va kelmagan o'quvchilar aniqlanadi: O'quvchilarga rangli qog'ozlar orqali guruhlariga bqlinadi: Oq ranglilar 1- guruh, qizil rangdagilar 2-guruh, yashil rangdagilar 3-guruh deb ataladi. Dars davomida o'quvchilar joylashishi uchun stollar guruhlariga moslashadi.

Xar bir guruh o'quvchilari talabiga ko'ra nom oladi: Lofchilar, Qiziqchilar, Ayyorlar deb nomlanadi, nomlari taxtacha ustiga yozilib qo'yiladi. Darsni olib borish qoidasi o'quvchilarga tushintiriladi: Agar qaysi guruh berilgan vazifani tez, uyushqoqlikda bajarsa, boshqalarga xalaqit bermasa, odob bilan o'quvchilar qoidasiga rioya qilsa rag'batlantiriladi va qo'shimcha balga ega bo'ulishi



aytiladi. Shovqin qilsa boshqalarga xalaqit qilsa jarima oladi va bu ham umumiy balga ta'sir etib olib tashlanadi. Bu darsda vaqt ham xisobga olinadi.

Birinchi tur bo'yicha o'quvchilarga tushincha beriladi.

Nasriddin Afandi sharq xalqlari og'zaki ijodida keng tarqalgan xajviy latifalarning qahramoni. U haqda O'zbekistonda ham latifalar ko'p. Afandining laqabi turli mamlakatlarda turlicha aytishadi: Masalan O'zbekiston Xo'ja Nasriddin, turklarga Xoja Nasriddin, Qozoqlarga Xo'ja Nosir, Ozorboyjonda Mulla Nasriddin deb atashadi. Nasriddin Afandi xaqiqatguy, adolatli, insonparvar, kambag'alparvar xalqparvar, xalq qaqramoni bo'lib, noinsof, g'arazguy, maraz kabi salbiy xarakterdagi kishilar ustidan ko'ladi. Afandi obrazi yaratilganiga ming yildan oshgan u haqda XIX- asrning birinchi yarmida (O'zbekistonda esa) Istambulda, keyinchalik Yevropada kitoblar nashr etilgan. O'zbekistonda uning tarjimasi 1962-1963 yillarda paydo bo'lgan. Keyinchalik O'zbekistonda Afandi haqida yangi latifalar yaratildi va kitob xolida nashr etildi. Bu kitoblarga iste'dodli o'zbek rassomi Telman Muhammadiyev, usta Mumin Nikolayev, Temurg'olib Jamoliddinov, A. Muxtorov kabilar tomonidan turli tuman illyustrasiya va haykallar ishlangan. Bir kuni Nasriddin Afandi bozorga ketayotgan ekan, uni kuchadan 3-4 sho'x bolalar ko'rib o'zlaricha. «Kelinglar, afandini boblab bir aldaymiz», deyishibdi.

Ular Afandiga:

«Xujam, shu daraxtda qush bolasi bor, olib bersangiz». (Afandi kalishi) Afandi xozir qush bola (dan foy) ochadigan vakt emasligini bilib, bolalar bir ish qilmoqchi ekanligini zezibdi va ularni lol qoldirmoqchi bo'libdi. U kalishini yechib olib cho'ntagiga solibdi va daraxtga chiqa boshlabdi, Bolalar:

«Afandim, kalishingizni qoldirib keting, yana qaytib tushasiz-ku». «Shunda Afandi» Daraxt ustida yo'l chiqib qolsa, ushanaqasi bozorga ketavaraman», debdi. Shunday qilib, bolalar Afandini aldamoqchi bo'lganliklaridan lat chekibdilar. Afandidan kechirim so'rabdilar. Buni sezgan Afandi daraxtdan tushib o'z yo'liga ketgan ekan. Bolalar Xo'ja Nasriddin haqida kinofil'mlar yaratilganligini eslab ulardan o'zlariga yoqqan qiziqarli voqialarni tanlaydilar. O'quvchilar rang tasvir qalamtasvir, haykal tarzida bajarishlari ham mumkin. Bolalarni qiziqtirish uchun va ularga yordam berish maqsadida Xo'ja Nasriddin bilan bog'liq miniatyura usulida illyustrasiya va rasmlar namoyish etiladi. Afandi obrazini yaratish uchun kiyimlar, eshagi, ularning o'lchovlari, ranglarini o'quvchilarga tushintiriladi. O'quvchilar bozorga ketayotgan Afandi «mavzusi»da tushincha berib o'tiladi.

2. ikkinchi tur bo'yicha o'quvchilar 3 tadan test ishlashlari aytiladi. 1. guruh, 2-guruh. 3-guruh.

1. Kulol ustalar qanday buyumlar tayyorlashadi?

A) Teshadan ishlanadigan buyumlar. B) Yog'och buyumlar V) sapol buyumlar G) mis buyumlar.

2. Tasviriy san'at janrlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A).Natyurmort, manzara, portret.B). Portret, zarduzlik, manzara.V). Natyurmort, zargarlik, kulolchilik. G). Xamma javoblar to'g'ri.

3.Ertaklarga illyustrasiya ishlagan rassomni toping!

A.) I.Ye.Repin, O'.Tansiqboyev, B). R.Axmedov, I.Kramskoy, V). Q.Basharov, V.Vasnesov. G). L.Qamborova, Y.Tursunnazarov.

Darsni mustahkamlash.

3.Tur buyicha o'quvchilar qiziqarli boshqotirma ishlaydilar.

1.Kataklarga gullarning nomini quyib joylashtiring!

1.Besh xil rangning nomini to'g'ri toping va kataklarga joylashtiring!

1.Rasmni qalam bilan chizib bo'lgach nima qilinadi?

2.Rasm nima bilan chiziladi?

3.Kunga boqar qanday rangda gullaydi?

4.Tabiat kurinishini rasm darsida nima deb ataymiz?

O'quvchilar tomonidan bajarilgan har bir tur guruhlardagi o'quvchilar ishlari dars davomida baholanadi. 5 ball uchun qizil atirgal, 4 ball uchun sariq atirgul, 3 ball uchun oq atirgul rasmi chizilgan rasmlar orqali ball quyib dars yakunida jami ball chiqarilib g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa: dars davomida bajarib bo'lmagan ishlarni tugatib, ranglab kelish. Ertaklar o'qib mazmunini aytib unga rasmlar ishlash.

12 – DARS. MAVZU: 2-MSNI. SHARQ MUMTOZ ADABIYOTI SYUJETLARI ASOSIDA MINIATYURA USULIDA MUSTAQIL KOMPOZISIYA ISHLASH

Darsning maqsadi: a)**Ta'limiy maqsadi:** Tasviriy san'at namunalaridan kuchirib rasm chizish ishlarini bajarish va uni tushunishga o'rgatish.

b)**Tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni ijodiy tasviriy faoliyatga bo'lgan munosabatlarini, estetik didini, badiiy tassovurni tarkib toptirish va takomillashtirish.

v)**Rivojlantiruvchi maqsad:** 2 - chorakda o'tilgan mavzular yuzasidan savol - javob qilish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

Darsning jihozi: a)**o'qituvchilar uchun:** turli xil jurnallarda chiqqan bolalar rasmlari, rassomlarning asarlarining reproduksiyalari, foto suratlar va boshqalar.

A)**o'quvchilar uchun:** yozuv, rasm daftar, suratlar, ruchka, qalam va xakozalar.

B)**Tashkiliy qism:** o'quvchilar bilan salomlashib davomatni aniqlash, o'tilgan darsni baholash, o'quvchilarni darsga tayyorlash.

Darsning uslubi. Suhbat, seminar, namoyish va xakoza. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib savol-javob tarzida dars o'tish.

Yangi darsning bayoni: Ikkinchi chorakdagi (tuqqiz soatlik dars asosida).

Reja :

1.Sharq miniatyura san'ati haqida suhbat. 8-10 daqiqa.

2.O'zbek xalq ertagi asosida mustaqil kompozisiya ishlash. 5-7 daqiqa.

3.Miniatyura ishlash uchun turli xil naqshlardan foydalanish. 7-10 daqiqa.

4.Savol-javoblar 10- daqiqa.

5.Darsni mustahkamlash va uyga vazifa 3-5 daqiqa.

Dars qiziqarli va samarador bo'lishini taminlash maqsadida o'quvchilar bilan savol-javob, test sinovlari o'tkaziladi. Xar bir o'quvchilarga bittadan savol bileti beriladi va javobni yozma ravishda olinadi. Savollar yopiq xolda o'quvchilar tomonidan tanlanadi.

1.Sharq miniatyura san'atining mashhur musavviri kim? Kamollidin Behzod.

2.Sharq miniatyurachi rassomlaridan kimlarni bilasiz? K.Behzod, M.Muzzahib, M.M.Samarqandiy, A.Kalla.

3.«Tojmahab» me'morchilik obidasi qaysi shaharda, kim uchun qurilgan? Xindistonning Agra shahrida Mirza Boburning rafiqasi Mumtoz begim uchun qurilgan.

4.Sharq miniatyura maktabining nomini ayting? Arab, Xindiston, Tabriz, Xiro, Ozorboyjon, Eron, Samarqand, Bsuxoro, Toshkent va boshqalar.

5.Jahonning eng yirik tasviriy san'at muzeylari qaysi shaharlarda joylashgan? Moskva, Tokio, London, Farij, Sank Peterburg, AQSh, Italiya va boshqa shaharlarda.

6.O'zbekistonning eng qadimgi mashhur san'at asarlari qayrlardan topilgan? Varaxsha, Afrosiyob, Tuproq qala, Xalchiyon, Bolalik tepa, Dilvarzin tepa, Axsikent.

7.Samarqanddagi Registon ansambli tarkibidagi madrasalar nomi qaysilar? Sherdor, Tillakori, Ulug'bek madrasalari.

8.O'zbek xalq amaliy san'ati rivoj topgan markazlarni ayting? Marg'ilon, Buxoro, Xiva, Namangan, Samarqand va boshqa ko'pgina shaharlar.

9.Me'morchilikka oid iboralarni ayting? Arka, Peshtoq, Panjara, Minora, Koshin va boshqalar.

10.Etyud iborasini tarifini ayting? Buyoqlar bilan qisqa vaqt ichida bajarilgan tasvir.

11.Naqqoshlikda qo'llaniladigan so'zlardan ayting? Islimi, grix, gajak, jingalak, marg'ula, oybarg, shobarg.

12.Amaliy san'atga doir iboralarni ayting? Shobarg, oygul, bargibodom, qalampir gul, bobta.

13.Oq va qora rang aralashmasidan qanday rang hosil bo'ladi? Kulrang hosil bo'ladi.

14.Guvash buyog'i tasviriy san'atning qaysi turida ishlatiladi? Rangtasvirda, amaliy san'atda, plakatchilikda, naqqoshlikda.

15.Xoshiya san'atning qaysi turida ishlatiladi? Bezakli amaliy san'atda.

16.Iliq ranglarga misol keltiring?! Qizil, sariq va bularning aralashmasidan hosil bo'lgan hamma ranglar.

17.Koshinkorlik san'atning qaysi turida ishlatiladi? Me'morchilikda.

18.Illyustirasiya iborasining mazmunini ayting? Badiiy asar mazmuniga oid biror lahzasini ifodalab ishlangan tasviriy san'at asari.

19.Ranglar doirasida asosiy ranglar nechta? Ranglar doirasida oltita berilgan.

20.Eng baland bino O'zbekistonning qaysi shahrida joylashgan? Toshkentda joylashgan.

21.Tasviriy san'atda qaysi oqimlarda rassomlar ko'proq rasmlar ishlaydilar? Realizm, naturalizm, impersionizm, romantizm, kubizm, puantilizm.

22.Miniatyura ustasi Kamoliddin Behzod ijod etgan shahar qaysi? Xiro, Tabriz.

23. Natyurmort nimalardan tashkil topadi? Barcha jonsiz narsalardan tashkil topadi.

24. Portret qanday tasvir? Tasviriyl san'atda inson qiyofasining tasviri.

25. Rangtasvir qanday matoda ishlanadi? Rangtasvir maxsus gruntlangan xolistlarga, kartonga, matoga ishlanadi.

26. Mashhur miniatyurachi rassom kim? Eng mashhuri Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari.

27. O'zbek rassomlaridan kimlarni bilasiz? O'rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov, Ro'zi Choriyev, Rahim Axmedov, Zokir Inog'omov, Javlon Umarbekov, Bohodir Jalolov, Akmal Ikromjonov, Isfandiyor Xaydarov, Qutlog' Basharov, Shamsiruy Hasanova, Laylo Salimjonova.

O'quvchilar tayyorlagan savollarga javoblar o'qib beriladi va baholanadi. Ushbu ochiq hisobot darsida boshqa fan o'qituvchilari, ota-onalar ham ishtirok etishlari mumkin. Ota-onalar ham o'zlarining fikr va mulohazalarini bildirishi, takliflar berishiga ruxsat etiladi. Ularning fikrlari ta'lim samaradorligini oshirishdek masuliyatli ishda yaxshi natijalar beradi.

O'quvchilarni baholashda quyidagicha ustun-garafadan foydalanish lozim:

№ O'quvchilar ismi va familiyasi Savol raqami. Bahosi. Jami

1. Abdullayev Erkin	25	4
2. Kamolova Maftuna	12	5 va hakoza.

«5» 10 ta.

«4» 6 ta.

«3» 11 ta.

O'quvchilar bilimidagi bushliqlarni darsdan keyin qo'shimcha dars qilib shug'ullaniladi, qaytadan savollarni tushuntirib mustahkamlanadi.

Darsni mustahkamlash.

Uyga vazifa. 2 - chorakda o'tilgan barcha materiallarni qaytadan takrorlash va shu bob mavzulariga doir beshtadan mustaqil o'quvchilarning o'zi testlar tuzib kelish.

Uy – ruzg'or buyumlaridan bitta rangtasvirda natyurmort chizib olib kelish.

13 – DARS. MAVZU: MINIATYURA ISHLASH UCHUN TURLI HAJM VA KO'RINISHDA ISH QUTILAR TAYYORLASH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarga turli ko'rinishdagi miniatyura ishlash uchun qutichalar tayyorlashni o'rgatish..

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat, mehnat, ekologik tarbiyasini va milliy qadriyatlar, ahloqiy tushunchalar hamda vatanparvarlik hislarini uyg'otish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: tasviriyl san'atning inson hayotida ahamiyatli ekanligini anglash tushunchalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** kurgazmali materiallar, zamonaviy miniatyuralar reproduksiyasi, shu mavzuda tayyorlangan oldingi o'quvchilarning ishlaridan namunalar, qutichaning bosqichli kurinishi va boshqalar.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, qalam, miniatyura rasmlar, karton, kley, qaychi, suv, qo'l artish uchun latta va boshqa kerakli materillar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 4 daqiqa.
2. Tatil vaqtida kurgan, o'rganganlari buyicha suhbat. 5 – 7 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 8 - 10 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 25 - 30 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashib navbatchi orqali yo'qlama qilinadi, sinf tartibi kuriladi, tozalik tekshiriladi va bugungi kun yangiliklari to'g'risida fikrlashadi.

Tatil vaqtida bajarilgan ishlarni kurib chiqish va o'quvchilarni rag'batlantirish, tatil vaqtida nima ishlar bilan mashg'ul bo'lganligi haqida qisqacha suhbat qilish.

Yangi darsning bayoni: Tasviriyy san'at doimiy rivojlanib kelayotgan fanlar jumlasiga kiradi. Mana siz tatildan qaytib ikkinchi chirak darslarini ham boshladingiz. Mavzuda berilganidek miniatyuralar ishlash uchun ish qutilar tayyorlab olish kerak va uni bezatish lozim. Oldingi darslarda kurganingizdek lakli miniatyuralar ish qutichalarda ham ishlanadi. Uni tayyorlash uchun oddiy karton yoki paneradan foydalanish mumkin. Bu qutichalarni ota-onalarga, aka – ukalarga va boshqa kishilarga sovg'a sifatida taqdim etish mumkin. Buning uchun u chiroyli va ihcham qilib tayyorlanishi kerak.



Ish qutichalarning bir necha xil tayyorlanishlarini doskadagi kurgazmalardan bilib olamiz. Bosqichli kurinishlarga ega bo'lgan ishlarni hamma o'quvchilarga kurinarli qilib quyiladi va ular bilan tahlil etiladi. Qutichalarning biriktirilmagan bulaklaridan ham bo'lishi lozim.

O'qituvchining o'zi ish qutichani yasash tartibini tushuntiradi va unga qanday qilib miniatyura ishlash yo'llari keyingi darsda bo'lishligini tushuntiradi. Oldiniga ish qutichalar yasab bo'lingan uchun unga miniatyuralardan kalka yoki bosma qog'ozda kuchirib chizib olinadi. Ish qutichalarni yasash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – qattiq qog'oz yoki kartondan qutichaning yoyilgan chizmasini chizib olamiz.

Ikkinchi bosqich – Chizib olingan joydan tumtoqroq pichoq yoki qaychining uchi bilan qisman chizib qirqamiz va uni buklaymiz.

Uchinchi bosqich – Buklangan joylarni egib bilinmaydigan qilib shpoklyovka yoki yumshoq qog'oz yopishtiramiz.

Turtinchi bosqich – Ish qutichalarni bezash uchun uning chetki chiziqlarini, silliqlash ishlarini bajaramiz, qopqoqchasini ochilib, yopiladigan holga keltiramiz.

Har bir bosqichda bajarilgan ish albatta toza va kurkam bo'lishiga erishish kerak. Tayyor bo'lgan ish qutichlarni silliqlab keyingi darsga tayyorlab qo'yiladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari bu ishlar davomida bolalar o'qituvchi kursatganidek bosqichlar bilan ish qutini tayyorlaydi. O'qituvchi hammaning bajarayotgan ishini nazorat qilib boradi va doimiy xato-kamchiliklarini hamda yutuqlarini aytib ishning to'g'ri borishiga yordam beradi.

Yaxshi bajarayotgan o'quvchilarni rag'batlantirib boradi. Qutichani rasm chizish uchun tayyorlashda eng avvalo uning bir tekis bo'lishligiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar ishni tugatishgach uni bir tekis holda shkafda saqlaydi va keyingi darsda uni akvarel yoki guvash buyoqlari bilan minityura chizib bezaydi.

Uyga vazifa berish. Keyingi darsda miniatyura asarlaridan nus'halar olib, kompozisiya xosil qilamiz u ishni ish qutichalarga bajaramiz. Shuning uchun miniatyura suratni qanday qismidan olamiz va joylashtiramiz o'rganib, suratlardan olib kelasizlar.

14 – DARS. MAVZU: ISH QUTINI BEZASH UCHUN KOMPOZISIYA ESKIZINI ISHLASH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarga turli ko'rinishdagi qutichalarga miniatyura va naqsh chizishni o'rgatish..

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat, mehnat, ekologik tarbiyasini va milliy qadriyatlar, ahloqiy tushunchalarini uyg'otish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: tasviriy san'atning miniatyura janri ham inson hayotida ahamiyatli ekanligini anglash tushunchalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** kurgazmali materiallar, zamonaviy miniatyuralar reproduksiyasi, shu mavzuda tayyorlangan oldingi o'quvchilarning ishlaridan namunalar, qutichalarga bezak berish bosqichlari va boshqalar.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, qalam, miniatyura rasmlar, quticha, suv, qo'l artish uchun toza latta va boshqalar.

Darsning rejasi:


1. Tashkiliy qism. 2 - 4 daqiqa.
2. Uyga berilgan topshiriqlarni baholash. 7 – 10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 8 - 10 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 20 - 25 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashiladi va navbatchidan so'rab yo'qlama qilinadi, sinfning tozaligi tekshiriladi hamda shu kun yangiliklari to'g'risida gapiriladi.

Tayyorlangan ish qutilar kurib chiqiladi va o'quvchilarning ishlari rag'batlantiriladi, baholanadi.

Yangi darsning bayoni: Dorskaga mavzu yoziladi. Tasviriy san'at darsining bu soatida mavzuda aytilganidek tayyorlab olingan ish qutilarga miniatyuralar ishlaymiz va uni chiroyli qilib bezatishni o'rganamiz. Oldingi darslarda kurganingizdek lakli miniatyuralar ish qutichalarga qanday qilib joylashtiriladi. Uni chizish uchun biz naqshlar ishlagan darslarni yodga olishimiz lozim. Bu qutichalarni bezatgandan so'ng ota-onalarga, aka – ukalarga va opa-singilga, do'stlarga sovg'a qilib taqdim etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ish qutichalarning bezatilishini doskadagi kurgazmalardan bilib olamiz. Bosqichli kurinishlarga ega bo'lgan ishlarni hamma o'quvchilarga kurinarli qilib quyiladi va ular bilan tahlil etiladi. Qutichalarning bezatilgan naqshlari, miniatyura eskizlaridan chizilgan kurinishlari o'rganiladi.



O'qituvchining o'zi ish qutichani miniatyura bilan bezash tartibini va rang berishi tushuntiriladi. Yasalib bo'lingan ish qutichalarga miniatyuralardan kalka yoki bosma qog'ozlarda kuchirib olinganlarga rang beriladi. Ish qutichalarga naqsh chizish tartibi quyidagicha ekanligi aytiladi. Bular bosqichlarda bajariladi.

Birinchi bosqich – ish qutichalarga miniatyura kompozitsiyasini kuchirib o'tkazish.

Ikkinchi bosqich – ish qutichaning badiiy bezagini aniqlash, rang tanlash.

Uchinchi bosqich – ish qutichalarning ranglarini berish va aniqlashtirib olish.

Turtinchi bosqich – ishni yakuniga yetkazish, chetki chiziqlarini to'g'rilab chizish.

Har bir bosqichda bajarilgan ish albatta toza va kurkam bo'lishiga erishish kerak. Ish qutichlarning naqshini va miniatyurani chizib bo'lgach ranglanadi, chetki chiziqlar beriladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari bu ishlar davomida o'quvchilarga o'qituvchi tushuntirib berilganidek turli bosqichlarda ish qutini naqsh va miniatyura bilan bezaydi. O'qituvchi hammaning bajarayotgan ishini nazorat qilib boradi va doimiy agar kamchiliklarga yo'l quyayotgan bo'linsa ularni to'g'rilashga yordam beradi. Shuningdek, yutuqlarini aytib ishning to'g'ri borishiga yordam beradi.

Ishni to'g'ri bajarayotgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirib boradi. Qutichalarning rasmlari eng avvalo o'zbek naqsh va miniatyuralari elementlaridan bo'lishi yoddan chiqmasligi lozim. O'quvchilarning ishlarini bajarib bo'lgandan keyin uni baholab chiqadi. Darsning oxirida esa ish qutichalarning hammasini yig'ib olish mumkin va bu o'quvchilardan sinfga estalik bo'ladi deyilsa yana ham ta'siri ko'chayadi.

Uyga vazifa berish. O'quvtilarning darsda miniatyura asarlaridan nus'halar olib, kompozisiya hosil qilish, suratlar yig'ib olib kelish.

15 – DARS. MAVZU: TASVIRIY SAN'ATDA DOSTGOH RANGTASVIRI. DASTGOH RANGTASVIR ASARLARINI BADIY TAHLIL ETISH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** dostgohli rangtasvir haqida o'quvchilar bilimini boyitish, rangtasvir asarlarini badiiy tahlil etishga o'rgatish;

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarga nafosat tarbiyasini singdirish, rassom asarlaridan go'zallik hislarini olishga tarbiyalash.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: dostgoh rangtasvir asarlarni o'qiy olish malakalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** Doska, bur, latta, dostgohli rangtasvir asarlaridan namunalar, rasmlarning foto reproduksiyalari va boshqalar.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, yozuv daftari, rasmlarning foto nus'halaridan namunalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. Uyga vazifani baholash. 10 – 13 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 10 - 12 daqiqa.
4. O'quvchilar bilan savol - javob. 10 - 15 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashiladi va ba'zi muhim voqyealar, rassomchilikka oid yangiliklar tug'risida qisqacha gapiriladi. Sinf o'quvchilarini navbatchi orqali yo'qlama qilinadi. Hammaga o'tilgan oldingi dars yuzasidan ishlarini baholanishini e'lon qiladi.

Uy vazifani baholash: Hamma o'quvchilarga bajarib kelgan rasmlarini partalar ustiga qo'yishi taklif etiladi. Keyin navbatchi o'quvchi yordamida ularni o'rganiladi. Chizilgan, yasalgan ishlarning turli ko'rinishdagilaridan olib ular baholanadi. Ishlarni tahlil qilib o'tish yaxshi natija beradi. Bolalarning eng yaxshi bajarganlari rag'batlantiriladi. Hammaning diqqatini yangi dars mavzusiga qaratib uni doskaga yozib qo'yadi.



Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'atda dastgohli rangtasvir o'zoq yillardan beri yetakchilik vazifasini o'tab kelmoqda. Rangtasvirda rassomlarga erkinlik berilishi ko'p yangi asarlarning vujudga kelishiga olib keladi. Agar rassom ma'lum bir asarini rangtasvirda bajara turib uni molbertda podravnikka tortilgan ramkada tasvirlasa u dastgohli rangtasvir bo'ladi. Rassomlar uni turli hajmlarda bajaradilar. Ular juda katta yuzalarni olishi mumkin.



1997 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkillashtirildi. Rangtasvir ijodkorlari ko'plab turli yo'nalish va oqimlarda erkin ijod qilmoqdalar. O'zbekiston xalq rassomi, fahriy akademiklardan MalikNabiyev, Raxim Axmedov, Nemat Quziboyev, Ro'zi Choriyev, T.Oganesov, Mannon Saidov, M.Yo'ldoshev, To'ra Quryazov, Akademiyaning haqiqiy a'zolari Sami Abdullayev, Bohtiyor Boboyev, Vektor Burmakin, J.Izontayev, Akmal Ikromjonov, Yigitali Tursunnazarov, T.Qo'ziyev, T.Mirjalilov va boshqa rangtasvirchilarni keltirib o'tish mumkin.

M.Nabiyev "Sohibqiron Amir Temur", "Beruniy", A.Mamatova "Bobur Mirzo" obrazini, T.Quriyozov esa "Jaloliddin Manguberdi" portretini, A.Ikromjonov "Kamollidin Behzod",

O.Muyinov "Bibixonim", Ch.Ahmarov "Nodira" portret asarlarini yaratgan edilar.

Tasviriy san'atning bu turida yaratilgan asarlarni janrlarga bo'linsa bu yanada ko'p qirralarini ochadi. A.Isayevning asarlari ham shular jumlasidandir. R.Ahmedovning "Tong" asari, Bahodir Jalolovning "Bahor", Javlon Umarbekovning "Qiyofalar" asarlarni olish mumkin. Bularning har birida davr nafasi, shu kunning ruhi joylangan. Asarlarning tahlilini keltirib o'tilsa yaxshi bo'ladi.

O'quvchilar bilan savol – javoblar. Dostgoh rangtasvirning ma'nosi qanday ekan? – Molbertlarda, ramkalarga ishlangan katta yuzali rangtasvirli rassom asarlaridir.

Amir Temur obrazini qaysi rassomlar ishlagan? – Asosan M.Nabiyev va N.Quziboyevlar ishlagan, M.Nabiyev g'olib bo'lgan.

Rangtasvir qanday janrda tasvirlanadi? – Rangtasvirlar hamma janrlarda bajariladi.

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi qachon tashkil etilgan? – 1997 yilda tashkil etiladi.

Milliy rassomlik va dizayn instituti bormi? – Bor u Toshkent shahrida.

Musavvir Kamoliddin Behzod portretini kim ishlagan? – Bu rasmni rassom Akmal Ikramjonov 1990 yilda yaratgan edi. Xuddi shunga uxshagan yana ko'plab savollarni berib javob olish mumkin bu ham vaqtga qaraladi.

Darsning yakuni va uyga vazifa. Hamma uyda O'zbekiston rassomlarining asarlaridan birontasini tahlil qilishni o'rganib kelsan va rasmlarning birini nus'hasini olsin. Turli rassom asarlarining foto reproduksiylaridan yig'ib kelish.

16 – DARS. MAVZU: DASTGOH RANGTASVIR SOHASIDA IJOD QILGAN O'ZBEKISTON VA JAHONNING MASHHUR RASSOMLARINING HAYOTI VA IJODIY FAOLİYATI

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga dostgoh rangtasvir to'g'risidagi ma'lumotlarini boyitish va bilimlarini shakllantirish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat tarbiyasiga yo'naltirish, milliy qadriyatlar, ahloqiy tushunchalar, vatanparvarlik kabi sifatlarini, g'ururini uyg'otish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: respublikamiz tasviriy san'atidagi turli oqim, yo'nalishlar, rassomlarga oid bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** Rassom Leonordo Do Vinchining “Jakonda”, R.Ahmedovning “Onalik” (Tong), Mannon Saidovning “Oila”, Malik Nabiyevning “Amir Temur” portreti namunalari reproduksiya. Texnik vositalar, rassom portreti.

B) o'quvchilar uchun: ruchka, yozuv daftari, rasmlarning foto nus'halaridan namunalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan dars mavzusini baholash. 7 – 10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 10 - 15 daqiqa.
4. O'quvchilar bilan savol – javoblar tariqasida asarlar tahlili. 10 - 15 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilarning kaefiyatini o'rganish, solomlashish va shu kunning muhim voqyealari to'g'risida qisqacha suhbat o'tkazish.

O'tilgan dars mavzusini baholash. Oldingi o'tilgan darsimizda qanday mavzuni o'tgan edik? Savoli bilan hammani sergaklantiriladi. Va shu savolga javob olinadi.

Dostgohli rangtasvir deganda nimani tushunasiz?

O'zbekistonning dostgohli rangtasvirda asar yaratuvchi qanday rassomlarni bilasiz?

O'rol Tansiqboyevning qanday asarlarini bilasiz?

Dostgohli rangtasvir turmi yoki janr?

Chinggiz Axmarov qanday rassom?

Shu kabi o'quvchilarning o'zlarini ham savol berib, javob olishga tortish lozim.



Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'at tarixida o'rta asrlar san'ati katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki shu davrdan boshlab dostgohli rangtasvir asarlari jahonda o'zining to'liq ifodasini topa boshladi.

O'yg'onish davr san'atida Leonordo Da Vinchi, Rafael Santi, Tisian, Rembrant, Alberxt Dyurer, Botichelli kabi rassomlar dunyoga tanildi. Ulardan Leonordo Da Vinchi yaratgan asari "Jokonda" (Monna Liza) portreti bu janrda yaratiladigan asarlarning yagona shohi deyish mumkin. Bu portret asari ustida hanuzgacha bahs ketmoqdi.

O'zbekiston xalq rassomi O'rol Tansiqboyevning «O'zbekistonda mart» asari tahlili.

Rahim Axmedovning «Tong» (Onalik) asarining tahlili.

Uyga vazifa: O'tilgan mavzu buyicha rassom asarlaridan tuplash va biron bir asarga uxshatma qilib bo'lsada mavzuli surat ishlab kelish.

17 – DARS. MAVZU: RANGTASVIRDA SYUJETLI KARTINA ESKIZINI ISHLASH

Darsning maqsadi: a) ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga tasviriy san'atning rangtasvir turida syujetli kartinalar yaratish haqidagi bilimlarni oshirish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarga nafosat tarbiyasini berish ahloqiy tushunchalarni, vatanparvarlik sifatlarini uyg'otish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: syujetli kartinalar yaratish bo'yicha tushunchalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a)o'qituvchilar uchun: doska, bur, kursatmali qurollar, rassomlarning asarlaridan namunalar.

B) o'quvchilar uchun: ruchka, qalam, yozuv daftari, rassom asarlarining foto nus'halaridan namunalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.

2.O'tilgan dars mavzusi bo'yicha o'quvchilar bilimini baholash. 10 – 12 daqiqa.

2. Yangi dars bayoni. 8 - 12 daqiqa.

3. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 15 - 20 daqiqa.

4. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashish. Darsda kim bor yoki yo'q. Yo'qlama qilinadi, o'tilgan mavzuni surab chiqiladi, darsga tayyorgarlik ko'riladi. Sinfning tozaligi, o'quvchilarning kayfiyati o'rganiladi.

O'quvchilarni baholash: Oldingi mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini baholash. Buyuk rassomlarning yaratgan asarlari, nomlari, qaysi davrda yashagan va u davr qanday ataladi? Asarlarning mazmun va ma'nolari to'g'risida suraladi, asarlar tahlilini bolalarning o'zlari o'tkazadi. Oldingi darsda o'rganganlari yuzasidan savol-javoblar bo'lib o'tadi.

Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'at tarixida o'rta asrlar san'ati katta ahamiyatga ega ekanligini oldingi darslarda ko'rib o'tgan edik. Asar yaratish uchun ko'p bilim kerak ekan. Tarixni, bo'lib o'tgan vokyalarni, atrofni kuzata olish rassomdan talab qilinadi.

Bugan biz "Rangtasvirda syujetli kartina eskizini ishlash" mavzusida rasm ishlaymiz. Duskada mavzu yoziladi va o'quvchilarning diqqatini o'qituvchi o'ziga qaratib darsni boshlaydi.

Rangtasvir nima ekanligini bilasiz, bu turli buyoqlar bilan rasm chizish, asarlar yaratishdir. Syujet esa - fransuzchada predmet degani. Tasviriy san'at asarida aks ettirilgan ma'lum voqyea, vaziyat. Voqiyeye mazmuni o'z aniq ifodasini topgani bilan (ayniqsa, maishiy, tarixiy janrga mansub tasviriy san'at asarlarida) ko'zga tashlanib turadi.

Suratlar ma'lum bir mazmunga ega bo'lishi lozim. Biz oldingi darslarda o'rgangan tasviriy san'at asarlarining hammasi syujetli asarlar hisoblanadi. Shunga uxshagan mavzularda biz ham suratlarining eskizini ishlaymiz.

Eskiz degani bilasizlar – rasmning xomaki ko'rinishlari, tez bajariladigan surat ma'nosini bildiradi.

Bir nechta syujetli kartinalarning nus'halaridan ko'rsatiladi. Bularning orasida oldingi sinf o'quvchilari, parallel sinf o'quvchilari chizgan suratlar bo'lsa yanada yaxshi bo'ladi.

Duskada kartina ishlash bosqichlari bo'yicha chizib ko'rsatish kerak.

Birinchi bosqich.

Ikkinchi bosqich.

Uchunchi bosqich.

Turtinchi bosqich



Kursatmali qo'rollarni va doskaga chizilganlarni biron material bilan yopib qo'yish lozim. Chunki o'quvchilar doskadagi rasmni kuchirib olmasinlar. Buni ham hammaga aytish kerak, ya'ni bolalarning o'zlari mustaqil kompozisiya eskizini chizish lozim.

O'quvchilarning mustaqil ishlari. Bu ishni bajarish davomida bolalar o'zlari o'qituvchining tushuntirganiga qarab vazifani bajaradilar. O'qituvchi esa ularni kuzatib yuradi. Xato va kamchiliklarni to'g'rilab olishlarida ularga doimiy maslahatlari bilan yordam berib boradi.

Uyga vazifa: Syujetli kartina eskizi buyicha boshqa yana bir rasm chizib kelish va rassom asarlaridan to'plash.

18 – DARS. MAVZU: XOTIRADAN MAVZULI NATYURMORT ISHLASH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga natyurmort kompozisiyasini chizish yo'llarini o'rgatish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarga estetik tarbiya berish, narsalarning go'zalligini ko'ra bilishini unga munosabatini tarbiyalash.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning natyurmort ishlashga bo'lgan mahoratini, bilimini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** rassom asarlarining foto reproduksiya, o'quvchilar ishlarining namunalari, o'qituvchining o'zi tayyorlagan bosqichli suratlari, turli foto natyurmortlar.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, qalam, yozuv daftari, akvarel, suvga idish va kerakli boshqa materiallar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 3 daqiqa.
2. O'tilgan darsni baholash. 7 – 10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 10 - 12 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 15 - 20 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashish va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini kuzdan kechirish. Navbatchi bilan ishlash.


O'tilgan darsni baholash: Syujetli kartina ishlash uyga vazifa qilib berilgan edi. Hamma chizganlarini partalar ustiga quyib chiqadi. Ularni o'qituvchi ko'rib chiqadi va hammasini baholaydi. Lekin ularning orasida turli chizilganlardan olib daskada tahlil qilinadi. Kundaliklarga baholar quyish mumkin. Suratlarning tahlilida o'quvchilarning tasviriyl sagn'atdan bilimlarini og'zaki savollar bilan ham to'ldirib borish lozim. Tasviriyl san'at terminlari, rassomlarning ismi, familiyasi, asarlarining nomi va boshqalar.

Yangi darsning bayoni: Xotiradan mavzuli natyurmort ishlashda biz oldinlari chizgan natyurmortlarga uxshash surat chiziladi. Faqat rasmlarga mavzu quyamiz. Natyurmort ma'lum bir ma'noga ega bo'lishi kerakligini unutmagan holda M: Tortli natyurmort; anorlar natyurmorti; Behi va shaftoli; oq fondagi vaza; gullar; kuza va olma natyurmorti va boshqalar bo'lishi mumkin. Fasllarga, mevalarga, narsalarga bog'langan natyurmortlar bo'lsa ham bo'ladi.

Oldingi o'quvchilar chizgan natyurmortlarning ko'rinishini qayta eslatib o'tish ham mumkin. Shuningdek xotiradan ishlagan vaqtda uning soyalari, kurinishi, foni, narsalar hammasi tasovurdan ishlanadi deb o'quvchilarning diqqiti daskaga qaratiladi. Bosqichlar bilan ishlangan natyurmortlarni ko'rsatib tahlil qilib qanday chizish yo'llari o'rgatiladi. Bosqichlar bilan chizilgan natyurmortning rangli ko'rinishi ham bo'lishi lozim. Hammasini alohida o'quvchilar chizishi shart emas ular bitta ko'rinishda bajarib topshiradilar. Rasm daftarning varag'iga umuman kun, yil, oy yoki mavzuni yozmaslik kerak. Bu kabi vazifalarni kundalikka yoki alohida yozuv daftarida qayd etsalar bo'ladi.

Natyurmortni bajarish bosqichlari:

- Birinchi bosqich –
- Ikkinchi bosqich –
- Uchunchi bosqich –
- To'rtinchi bosqich –



Har bir bosqichning ranglanishi va qalamda tasvirlanishi albatta o'quvchilarga tushunarli bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Agar bolalar mavzuni yaxshi bajara olmay qiynalsa qaytadan tushuntirishga imkon topish kerak.

O'quvchilarning mustaqil ishlari: Hamma o'quvchilar xotiradan natyurmortni ma'lum bir qismini chizib, joylashtirib bo'lguncha ularga xalaqit berilmaydi. Keyin esa aylanib ko'rib chiqiladi va kerakli qo'shimcha vazifalarni beradi.

Suvdan foydalanish, rang qo'yish, qil qalamni ishlatish, politradan foydalanish kabi tasviriy san'at qoidalarini takrorlab borish lozim. O'quvchilarga bu terminlar qoidaga aylanguncha.

Ishni tez bujarib bo'lgan o'quvchilarning rasmini kursatib rahbatlantirib borilsa natijasi yanada yaxshi bo'ladi. Baholash ham mumkin.

Uyga vazifa va darsni mustahkamlash: Xuddi shu kabi boshqa natyurmort kompozitsiyasini ishlab kelish. Turli mavzularda bajarilgan rassom asarlarining foto nus'halaridan yig'ish.

19 – DARS. MAVZU: 3-MSNI. ADABIY ASAR SYUJETI ASOSIDA MUSTAQIL KOMPOZISIYA ISHLASH

Darsning maqsadi: a) ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga adabiy asarlar mazmuni uchun kompozitsiya ishlash kerakligi to'g'risida ma'lumotlar berish, milliy ertak, doston, xikoya, masal va boshqalar mazmuniga rasm ishlashni o'rgatish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat tarbiyasiga yo'naltirish, milliy qadriyatlar, ahloqiy tushunchalar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: tasviriy san'atda adabiy asarlar katta o'rin tutishini tushunishdaga bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) o'qituvchilar uchun: Kursmatmali qurollar, tarqatma materiallar, doska, bur, I.Ikramov, Q.Basharov, A.Vasnesov, Venidektov, Kagarov kabi rassomlarning asarlari reproduksiyasi, testlar, krassvord, qiziqarli didaktik materiallar.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, yozuv daftari, rasmlarning nus'hali va ertaklardan namunalari.

Darsning metodi. Aralash dars, bahs-munozara, savol-javob.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan dars mavzusini baholash. 8 – 10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 8 – 10 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari va savol-javoblar. 20 - 25 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism. Bolalar bilan salomlashib, yo'qlama qilinadi, sinf tozaligi va darsga o'quvchilar olib kelishi lozim bo'lgan narsalarning borligi nazorat qilinadi. Hammaga uy vazifalarni partalar ustiga chiqarib quyish kerakligi aytiladi. Sinf o'quvchilarini kichik guruhga bo'lib olish mumkin. Bo'lishni jeribovka, sanash 1, 2 deb yoki partalar orqali bo'lishi ham mumkin. Albatta har bir guruhga sardor ham

belgilanadi. Agar bolalar sonidan bir o'quvchi ortib qolsa xakamlikka olish to'g'ri bo'ladi.

O'quvchilarning uy vazifalarini baholash. Bo'lingan guruhlarining uyda chizib kelgan ishlarini xakam bilan birgalikda o'qituvchi ko'rib chiqadi. O'quvchilarning ish daftarida bajarilgan vazifalaridan eng yaxshi chizilganlari 4 ta, o'rtacha chizilganidan 4 ta, yomon bajarilgan ishlardan 3 - 4 ta terib olib chiqiladi va tahlil qilinadi. Tahlilga o'quvchilarning guruhlaridan saylangan sardor boshchiligida shu bolalar qatnashadi. O'qituvchi oldindan tayyorlab quygan tarli savol, krassvord, testlar berib tahlilning to'g'ri borishini ta'minlaydi. Natyurmort to'g'risida qonun – qoida emas chizishdagi to'g'ri yoki noto'g'ri tomonlari o'rganiladi.

Yangi darsning bayoni: Adabiy asar syujeti asosida kartina ishlash mavzusidagi dars oldingi o'tilgan darsimizning davomi kabi ahamiyatga ega, chunki o'quvchilar adabiyot, ona-tili, tarix, chet tili darslarida adabiy qahramonlarining xayot-faoliyatlari bilan tanishadi. Asarlarning mazmuni, ma'nosi o'quvchilarning dunyosiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham biz o'qigan kitoblarimizga turli rasmlar chizishimiz mumkin. Yozuvchilar, shoirlar o'zlarining tillari bilan asar yaratadilar. Rassomlar esa buyoqlarda, qalamda tasvirlaydi. Biz yoshligimizdan ko'plab ertaklar eshitganmiz. She'rlar yodlaganmiz, dostonlar o'qiganmiz. Huddi shunday rassomlar ham ularni o'qib tushunganlari asosida rasm chizadilar. Buni rassomchilikda illyustrasiya ishlash ham deyiladi. Kompozisiya ham shu asarlarning mazmun, ma'nosi bo'yicha surat ishlashdir.



O'zbekiston xalq rassomi Iskandar Ikramov o'zoq yillar davomida buyuk til va adabiyotchilar ustozlari, she'riyat mulkining sultoni bobomiz Alisher Navoiyning «Xamsa» dostoniga ko'plab kitobillyustrasiyalarini ishlagan, ularni bezatgan. Ko'plab darslik kitoblaringizni o'zining ajoyib suratlari bilan bezatgan xalq rassomi Qutlug' Basharov. Uning «Uch og'ayni botirlar», «Zumrad va Qimmat» kabi suratlarini misol qilib keltirish mumkin.

Rus rassomi V. Vasnesov «Buri mingan shohzoda», «Uchar gilam», «Alyanushka» va boshqa rasmlarini ertaklar asosida yaratgan edilar. Shularning birini olib bolalar bilan to'liq tahlil qilish ham mumkin.

O'quvchilarning mustaqil ishlari. Mustaqil ish davomida o'quvchilar o'zlari yaxshi bilgan ertak yoki boshqa adabiy asar mazmuni asosida mustaqil kartina ishlaydilar. O'quvchilarga o'qituvchi aralashmay chetdan kuzatadi. Ishlarning to'g'ri yoki noto'g'ri borishini lozim bo'lganda maqtab, ba'zida tanbeh berib boradi. Vaqti-vaqti bilan baholash ham mumkin.

Juda yaxshi chizilayotgan kartinalarni hammaga kursatib rag'bat beyerish, baho quyish, kurgazmaga olish uchun vada berish lozim.

Uyga vazifa. Ishning chala qolgan joylarini tugatish va rassom asarlarining foto reproduksiyalaridan yig'ish.

20 – DARS. MAVZU: TABIATNING TURLI HOLATDAGI (TONG, QUYOSHNING BOTISHI, QUYOSHLI KUN, YOMG'IRLI KUN VA HAKOZA) TASVIRINI ISHLASH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga tong, tun, qo'yoshli, yomg'irli kun kabi mavzularda surat chizishga oid bilimlar berish.

B) tarbiyaviy maqsadi: bolalarga nafosat tarbiyasi, tabiatga muhabbatni singdirish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning tabiatdagi xolatlarni rasmda tasvirlash malaka, kunikma, bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** O'qituvchining o'zi chizgan kursatmali qurollar, rassom N.Kuyndjining "Oqshom", O'.Tansiqboyevning "Tog' oqshomi", "Qoyroq qum GESida tong" R.Ahmedovning "Choyga" kabi asarlarning foto suratlari.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, ruchka, qalam, akvarel, politra, qil qalam, suv idish, yozuv daftari va boshqalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan darsni baholash. 7 – 8 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 10 - 12 daqiqa.
4. O'quvchilar bilan savol - javob. 15 - 20 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilarning kayfiyatlarini surab, solomlashgach navbatchi orqali yo'qlamani belgilab, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi aniqlanadi. Hammaga oldingi darsga oid vazifalarni bajarib kelganligi aytilib uni baholash lozimligini tushuntiradi.

Uyga vazifani baholash va tahlil qilish. O'quvchilarga uyda bajargan ishlarini partalarga quyib chiqishi lozimligi aytiladi. Kim chizib kelgan bo'lsa ularning turli kurinishdagilaridan yig'ib olinib doskaga quyiladi. Rasmlarning yutuqlarini topishga, mazmunlisini o'rganishga harakat qilinadi. Chunki mustaqil ravishda tabiatning turli xolatlarni chizish darsi juda g'qiziqarli va bolalarning fazoviy tassovurlarining qanday ekanligini, xotirasini imtihon qiladigan darsdir.

Adabiy asarlarning mazmuniga syujetli kartina ishlash ham bugungi darsning o'ziga uxshash ekanligini bolalar bilsan. Tahlilga o'quvchilarning o'zlarini ko'proq ishtirok etkazish lozim. Sizlar ertak yoki adabiy asarlar mazmuniga rasm ishlaganda qanday vaziyatlarni oldingiz? Bir doston yoki ertakka minglab rasm ishlash mumkin ekanligini ham aytish kerak. Keyingi darsga oid bahzi quyidagicha savollarni berib o'quvchilarning tabiatga nisbatan munosabatini qisqacha o'rganish mumkin.




Qanday ranglar tong vaqtida ko'p bo'ladi?

Quyosh tik bo'lganda – chi?

Soyalarning rangi qanday va u qanday tasvirlangan?

Qaysi rassomlar shunga uxshagan asarlar yaratishgan va nima uchun? Va boshqa ko'plab savollarni keltirib o'tilsa bo'ladi.



Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'atda hamma rassomlarni o'ziga jalb qilgan narsa bu tabiatdir. Shuning uchun mavzuli kartinalarni ishlaganda albatta ko'plari tabiat bilan qushib chizadi. Tong vaqtini eslang! qanday tozo xavo, endi yorishib kelayotgan tong tabiatning mujizasi. Bu quyosh chiqishi, yer uning atrofida aylanishi bilan bog'liq. Yomg'ir yog'ayotgandagi kurinish bundan ham o'zgacha. Shunday go'zalliklardan zavqlanib rassom asarini yaratadi. O'zbekiston xalq rassomi O'rol Tansiqboyevning «Tog'dagi qishloq. Oqshom» asarini ko'raylik. Asarda tik holdagi kompozisiya yaratilgandir. Undagi kurinish Respublikamizning tog'li manzarasini aks ettiradi. Asarning mazmuni ham Vatanimizning bir bo'lagi, bir tog' qishlog'i misolida akslantirilgan. O'zoqlardan ko'rinib turgan baland tog'lar, chiroqlaridan derazada nur taratib turgan xonodonlar, yaqindan kurinib turgan soylik. Ba'zi elas-elas ko'rinib turgan odamlarning shakllari manzaraga hamoxang tasvirlangan va u yerda hayot qaynayotganidan dalolat beradi.

Asardan ma'lumki, oqshom kirib quyosh botgan, tog' chuqqilarini, qoyali toshlarni tun o'z domiga tortmoqda. Tepaliklardan tushib kelayotgan quyularning maragan tovushlari, chigirtkalarning chiyillashi, soyning sharqirab oqishi eshitilayotgandek seziladi. Kechki payt bo'lsada uning turli tovlanishidan bolalar zavqlanib yurganlari har bir yerlarda borligi kuzga tashlanadi. Endi quyosh tog' ortiga burkanib olganu, bir pastda oy chiqmoqchi. Asarning go'zal kurinishi har qanday odamni o'ziga tortadi. Uni ko'rib zavqlanamiz. Asarlarning tahlilini shu tarzda olib borilsa o'quvchilar har qanday rasmdan mazmun axtaradigan bo'ladi.

Shunday qilib asarlar tahlili bilan yangi dars mavzusini ham bog'lab tushuntirib borish lozim.

O'qituvchi o'zi chizib tayyorlagan kursatmali qurollarini doskaga quyib, bir necha bosqichlarda chizib ham kursatsa yaxshi bo'ladi. Bolalar o'zlari boshqacha kompozisiya ishlashi kerakligi aytiladi.

Birinchi bosqich – rasm daftar varag'iga to'g'ri joylashtirish va asosiy ufq chizig'i, katta-katta kurinishlar, yo'l, oldingi plandagi ba'zi narsalarning joylashishi kursatiladi.

Ikkinchi bosqich – kurinishlar ancha aniqlashtirilib, soya va yorug' joylarni ham aniqlashga xarakat qilinadi. Lekin bo'lar ham xali xomaki ko'rinishda bo'ladi.

Uchunchi bosqich – biroz maydalashib endi rosa aniqlanadi. Ranglarni qo'yish uchun tayyorlanadi.

Turtinchi bosqich – buyoqlarning birinchi bosqichi ishlanadi. Uncha aniq bo'lmagan joylar va asosiy katta yuzalarga buyoqlar surkaladi.

Beshinchi bosqich – rasmning hamma joylariga byyoq tegishiga erishiladi. Soya va yorug'lik joylari aniqlanadi. Perspektiv kurinishlar buyoqda topiladi. Rang tonlari, kuchi, rang aralashmalari quyiladi.

Oltinchi bosqich – surat bajarmoqchi bo'lgan hamma etaplarni bosib bo'ladi va ish yakuniga yetkazilib ranglanadi. Eng muhim joylarigacha bajarib bo'lganndan keyin yakunlanadi.

Bu ishlarni bajarish bilan savol – javob qilinadi.

Suratning qaysi joyidan o'fq chizig'i o'tgan?

Ufq chizig'ini qanday aniqlaymiz?

Perspektiva nima ekan va bu tabiat rasmini chizganda qanday bo'ladi?

Nima uchun bosqichlarda ishlanadi?

Rangni qurimasdan quyilsa nima bo'ladi? va xakoza savollar berish mumkin.

O'quvchilarning mustaqil ishlari. Bunda hamma fikriga kelgan va o'zlashtirgan bilimi asosida rasm chizadi. Bir biriga halaqit bermasdan tinch ishni bajarish kerak. O'qituvchi hammani chizganlarini ko'zatib yuradi va yutuqlarini va kamchiliklarini vaqtida to'g'rilab olishlariga yordam beradi. Vaqti-vaqti bilan rag'batlantirib boradi.

Uyga vazifa. Shu mavzuda boshqa bir surat ishlab kelish va rassom asarlarining reproduksiyasidan yig'ish.

21 – DARS. MAVZU: GRAFIK ISH (MAKTAB, SANF EMBILEMASINI ISHLASH)

Darsning maqsadi: a)ta'limiy maqsadi: Qalam tasvirda rasm chizish bilim va malakalarini oshirish.

A)tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarning estetik va vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: Grafik rasm chizishga bo'lgan qiziqishni, maktab, sanf tartibiga amal qilishdagi tushunchalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) o'qituvchilar uchun: Grafikada chizilgan rasmlar, o'quvchilarning ishlari, rassom A.Mamajonov "O'zbekiston gerbi", P.Pikassoning "Tinchlik kabutari" asarlari, sinf, maktabga oid geraldika chizmalari.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, qalam, akvarel, guash, politra, toza suv, latta va rasmlarning foto nus'halaridan namunalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan dars mavzusini baholash. 8-10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 7 - 8 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 20 - 25 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashiladi va ba'zi muhim voqyealar, rassomchilikka oid yangiliklar tug'risida qisqacha gapiriladi. Sinf o'quvchilarini navbatchi orqali yo'qlama qilinadi. Hammaga o'tilgan oldingi dars yuzasidan ishlarini baholanishini e'lon qiladi.

Uy vazifani baholash: Hamma o'quvchilarga bajarib kelgan rasmlarini partalar ustiga qo'yishi taklif etiladi. Keyin navbatchi o'quvchi yordamida ularni o'rganiladi. Chizilgan, yasalgan ishlarning turli ko'rinishdagilaridan olib ular baholanadi. Ishlarni tahlil qilib o'tish yaxshi natija beradi. Bolalarning eng yaxshi bajarganlari rag'batlantiriladi. Hammaning diqqatini yangi dars mavzusiga qaratib uni doskaga yozib qyyadi.

Yangi darsning bayoni: Maktab emblemasini ishlash. Qanday bo'ladi bu dars? Biz oldingi mashg'ulotlarimizda ham geraldika, ya'ni emblema ishlaganmiz. Shu kabi har bir joyning nomi, belgisi bo'ladi. Sinf uchun, tugarak uchun, joy uchun emblema yaratish mumkin. Uning quyidagi-cha turlarini ko'ring!


O'zbekistonning belgisi bu gerbimizdir. Davlatimizning nishoni.

Shu kabi maktab belgisini kompozisiya qilib ishlaymiz. Kim chiroyli, mazmunli, aniq emblema yarata oladi?

Bir qancha embelemalardan foydalangan holda bajarish ham mumkin.

O'quvchilarning mustaqil ishlari. Hammani o'z xolicha quyilib chizishga ruxsat etiladi. Bu vaqt maboynida jurnalni to'ldirish, boshqa muhim ishlarni bajarish mumkin. Oradan 5 daqiqa o'tgandan keyin bolalar ishini ko'rib chiqiladi. Yaxshi bajarayotganlarni rag'batlantiradi. Noto'g'ri bajarayotganlarga yo'l kursatadi. Ishni oldinroq to'g'ri amalga oshirayotgan o'quvchilar bo'lsa tugamagan bo'lsa ham baholash mumkin.

Uyga vazifa. Har bir o'quvchi o'zining yoki uyining emblemasini ishlab kelish va turli embelemalardan yig'ish.



22 – DARS. MAVZU: TARIXIY YOKI MIFOLOGIK MAVZULARDA PORTRET ISHLASH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarni portret ishlashga va tarixiy shaxslarni unutmazlikka o'rgatish.

A) tarbiyaviy maqsad: Tarixiy, mifologik qahramonlarni hayot tarzi bilan tanishtirib mard, jasur, qurqmas vatanparvar kishilar qilib tarbiyalash.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: Oldin o'rgangan, odam rasmini chizganlarini xayoliy tarzda ham bajara olish malakalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) **o'qituvchilar uchun:** Kurgazmali qurollar, rasmlarda tarixiy shaxslar kitobi, M.Nabiyev, N.Quziboyev, B.Jalolov, J.Umarbekov, T.Quriyozov kabi rassomlarning portret asarlari fotolaridan namunalar, oldingi sinf o'quvchilari chizgan suratlar va boshqalar.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, qalam, akvarel yoki guvash, politra, toza latta, rasmlarning foto nus'halaridan namunalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan dars mavzusini baholash. 8-10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 15 - 25 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 10 - 15 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan solomlashib olinadi va muhim voqyealar, kelayotgan bayramlar to'g'risida qisqacha suraladi. Sinfning tozaligi, darsga tayyorgarlik o'rganiladi.

Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'atda tarixiy yoki mifologik mavzularda ishlangan portretlarni bodiiy idrok etish (Malik Nabiyev, Beruniy, Bobur, Amir Temur portretlari; Akmal Ikromjonov, Ulug'bek portreti; To'ra Quriyozov. Jaloliddin Manguberdi portreti; Javlon Umarbekov. Ulug'bek, Amir Temur portreti; Orif Muyinov. Bibixonim portreti. Shulardan 1-2 tasi tanlab olinadi). Ortiqcha ko'p asarlarni tahlil qilish to'g'ri kelmaydi. Chunki vaqt chegaralangan bo'ladi.

Portretlarni ishlash bosqichlari ham kursatib o'tiladi.

Birinchi bosqich – faqat qog'oz varag'iga to'g'ri joylashtirib olish.

Ikkinchi bosqich – odamning tuzilishi, proporsiyalari, qarash chiziqlari o'z o'rniga quyiladi.

Uchunchi bosqich – Portret uxshatiladi va rang berishga tayyorlanadi. Soya va yorug' joylarni aniqlaydi.

Turtinchi bosqich – rang berishni boshlaymiz. Asosan bunda katta yuzalar, orqa foni, soch va yuzlarni birinchi kurinishda ranglanadi.

Beshinchi bosqich – buyoqlar to'liq surtilishiga, soya va yorug'likning berilishiga e'tibor qaratiladi.



O'quvchilarning mustaqil ishlari. Tushuntirilganlar asosida portretni chizishga ruhsat beriladi. Surat kurinish jihatidan tarixiy shaxsga uxshashi kerakligi ma'lum. O'qituvchi vaqtdan foydalanib 5 daqiqa davomida o'zining ishlarini bajarib oladi. Keyin o'quvchilarning ishini nazorat qiladi. To'g'ri yoki noto'g'ri bajarilayotgan ishlarni kuzatib yo'l kursatib boradi. Rag'batlantiradi. Darsning oxirida hammaga kursatib ishlarni qisqa tahlil qilish ham mumkin. Agar vaqt ortib qolsa.

Uyga vazifa. Mifologik mavzuda portret ishlashni davom ettirish va suratlar yig'ish.

23 - DARS. MAVZU: RANGTASVIRDA MAVZULI KARTINA. SUHBAT HAMDA SYUJETLI KARTINALIRNI TAHLIL ETISH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga tasviriy san'atining rangtasvirda surat chizishi to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni estetik tarbiya berish, milliy qadriyatlar, ahloqiy tushunchalar, vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: rassomlarning asarlari kabi ishlarni bajara olishdagi bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a) o'qituvchilar uchun: Rassomlarning rangtasvirda ishlangan asarlari namunalarining foto suratlari, o'quvchilarning ishlaridan namuna, o'qituvchi o'zi ishlagan kurgazmali qurol.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, qalam, akvarel, guash, politra, suv idish, toza latta va boshqalar.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. Topshiriqlarni baholash. 7 – 8 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni. 7- 10 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 15 - 20 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi: Tashkiliy qism. O'quvchilarning kaefiyatini ko'tarish bilan solomlashiladi. Yo'qlama qilinadi va sinfning tozaligi kuzdan kechiriladi. Hamma berilgan vazifalarni olib kursatish uchun partalar ustiga quyadi.

Uyga vazifani baholash. O'quvchilarning tarixiy mavzuda bajargan portretlarini kurib chiqiladi va baholanadi. Baholash davomida hammasining ishlari dimonstrasiya usulida doskaga quyiladi. O'quvchilarni faol qatnashtirib savol-javob qilinadi. Yaxshi bajargan va tahlil qilib berganlarga baholar quyiladi.

Tarixiy qahramonlardan kimlarni bilasiz?

Mifologik degani nima ekan?

Rangtasvirning o'zi nima?

Qaysi rassomlar shu janrda ijod qilgan?

Qanday asarlar nomini ayting!?! Va boshqalar.

Savollarga javob olingandan keyin barchaning diqqatini yangi mavzuga qaratiladi. Kurgazmalarni doskaga quyiladi.

Yangi darsning bayoni: Tasviriy san'at tarixi juda qadimga borib taqalishini bilib oldingiz, Qanday asarlar yaratilgani, rassomlarni o'rgandingiz. Endi yangi mavzuda rangtasvirda rasm ishlaymiz.

Rangtasvirda kartina yaratish bu oldingi chizgan rasmlarga uxshash bo'lib ma'lum bir mavzuni tanlash kerak. Bu mavzu ihtiyoriy yoki o'qituvchi tomonidan taklif kiritilishi ham mumkin.



Masalan: «Varrak uchirish», «Bog'bonlar», «Gullar teremiz» va xakoza mavzularda rasm ishlasa bo'ladi. Chunki bolalarning badiiy tasavvurlari kengayadi. O'quvchilarning e'tibori mavzuning yoritilishiga qaratilishi lozim. Har qanday rasmda mazmun bo'lganda u asar bo'ladi. Rassomlar ham asarini yaratayotganda uning ma'lum bir ma'noga egaligiga alohida e'tibor beradi. Birinchi plandagi narsalar ishning aniq mazmunini ochib bersa orqa plandagi narsalar unga kurk va go'zallik bahsh etadi. Oldiniga qalamda chizib olish lozim keyin u ranglanadi. Qog'ozda ranglashdan oldin suv bilan hullab olish kerak. Oldiniga osmon kabi katta joylar ranglanadi. Ranglanganda ham politrada bir biriga ularning aralashmasidan foydalanish kerak. Ranglarni qo'shganda boshqa rang chiqadi. Yer, utlar, toshlar, butalar, daraxt va qirlarning rangi ham o'ziga xosdir. Odamlarni o'zoq yoki yaqindaligiga qarab turli ranglar bilan bajariladi. Bajarilayotgan ishlarning to'g'ri borishi uchun o'qituvchi oldingi chizilgan o'quvchilarning rangtasvirdagi ishlaridan kursatib borish kerak. Bolalar yo'l quyayotgan xatolarini tuzatib olishlarida yordam bo'ladi.



Rangtavirda syujetli kartina chizish bosqichlarini qo'yidagicha kursatib ham o'tish lozim.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini olib borish ham savol-javoblar bilan boradi. Kim syujetning ma'nosini aytib beradi?

Rangtasvir qanday bo'ladi?

Rasmni chizgandan keyin rang berishdan oldin nima qilimiz?

Oldiniga qaysi joylar ranglanadi?

Perspektiva qanday bo'ladi? va boshqalar.

Uyga vazifa. Mavzu bo'yicha rasm ishlab kelish, shunga uxshash ishlangan rassom asarlaridan yig'ib olib kelish va uning tahlilini o'rganish.

24 – DARS. MAVZU: 4-MSNI. «BAHORGI ISHLAR» MAVZUSIDA SYUJETLI KARTINA ESKIZINI ISHLASH

Darsning maqsadi: a) **ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga mavzu asosida rasm ishlashni eskizlar bajarishni o'rgatish.

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni nafosat, axloqiy, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

V) rivojlantiruvchi maqsadi: tasviriy san'atda syujetla asarlarni bajarish va tushunishdagi bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: a)o'qituvchilar uchun: Kursmatmali qurollar, tarqatma materiallar, doska, bur, O'.Tansiqboyev, Taldikin, Ch.Ahmarov kabi rassomlarning asarlari reproduksiyasi va boshqa didaktik materiallar.

B) o'quvchilar uchun: rasm daftar, qalam, akvarel, rasmlarning nus'halaridan namunalari.

Darsning metodi. Aralash dars.

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism. 2 - 5 daqiqa.
2. O'tilgan dars mavzusini savol-javob bilan baholash. 8 – 10 daqiqa.
3. Yangi dars bayoni bahs. 10 – 15 daqiqa.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlari. 10 - 15 daqiqa.
5. Darsning yakuni va uyga vazifa. 2 - 3 daqiqa.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashib, yo'qlama qilinadi, sinf tozaligi va darsga o'quvchilar olib kelishi lozim bo'lgan narsalarning borligi nazorat qilinadi. Hammaga uy vazifalarni partalar ustiga chiqarib quyish kerakligi aytiladi. Sinf o'quvchilarini kichik guruhga bo'lib olish mumkin. Bo'lishni jeribovka, sanash 1, 2 deb yoki partalar orqali bo'lishi ham muvofiq. Albatta har bir guruhga sardor ham belgilanadi. Agar bolalar sonidan bir o'quvchi ortib qolsa xakamlikka olish to'g'ri bo'ladi.

O'quvchilarning uy vazifalarini savol-javob bilan baholash. Bo'lingan guruhlarining uyda chizib kelgan ishlarini xakam bilan birgalikda o'qituvchi ko'rib chiqadi. O'quvchilarning ish daftarida bajarilgan vazifalaridan eng yaxshi chizilganlari 4 ta, o'rtacha chizilganidan 4 ta, yomon bajarilgan ishlardan 3 - 4 ta terib olib chiqiladi va tahlil qilinadi. Tahlilga o'quvchilarning guruhlaridan saylangan sardor boshchiligida shu bolalar qatnashadi. O'qituvchi oldindan tayyorlab quygan turli savol, krassvord, testlar berib tahlilning to'g'ri borishini ta'minlaydi. Natyurmort to'g'risida qonun – qoida emas chizishdagi to'g'ri yoki noto'g'ri tomonlari o'rganiladi.

Savol-javoblarda hamma o'quvchilarning faol qatnashishlari uchun biladigan, tortinchoq bolalar ham teng bo'linadi. Baho butun guruhning faolligiga va to'g'ri javoblari xisobga olingan holda qo'yiladi.

Yangi darsning bayoni: Adabiy asar syujeti asosida kartina ishlash



Mavzusida biz adabiy asarlarning mazmuniga rasm ishlagan edik. Unda kompozisiya yaratildi. Endi esa «Bahorgi ishlar» mavzusida kompozisiya yaratish darsi. Bilamizki rassomlar o'z asarlarini tabiatdan oladi. Quyidagi kartochkalarda savollar yashirin guruhlar bajarib kursinlar. Har bir savolga

1. daqiqadan vaqt javob uchun ham 1 daqiqa
2. testlarga javoblar 5 daqiqa.
3. krasvord yechish 3 daqiqa.
4. Tez qoralama, eskiz chizish 5 daqiqa.

Mustaqil ishlarni bajarish ham shu dars borishiga qo'shilib ketadi. Bosqichlar, ranglash, odam figuralari, ufq chizig'i, narsalar tekisligi, surat tekisligi, perspektiva qisqarishi, xavo perspektivasi, rang perispektivasi, chiziqli perspektiva, rassomlardan

V.Taldikin, E.Kalandarov, Plastov, Vilaskis asarlaridan birining mazmunini savol qilib qo'yiladi.

Bolalar rasmni guruh bo'yicha chizishlari ham mumkin lekin hamma ishlashlari shart. Unda katta vatman yoki aleksandrovka qog'ozida bajariladi. Turtta guruhga turtta qog'oz beriladi. Katta panorama qilib kursatish lozim. Har bir o'quvchi ma'lum bir suratning joyini o'zi kompozisiya qiladi va suratni katta qog'ozga ko'chirib ishlaydi, ranglaydi.

Bu guruh ishi bo'lib hisoblanadi. Mazmunini ham aytib beradilar.

O'quvchilarning uyda bajarib kelishlari uchun boshqa shu kabi kompozisiya ishlashlari aytiladi.

25 – DARS. MAVZU: ERKIN MAVZUDA SYUJETLI KARTINA ISHLASH

Darsning maqsadi: a) **Ta'limiy maqsadi:** Erkin mavzuda me'moriy inshootlar tasviri ishtirok etgan kompozisiya ishlashga o'rgatish.

b) **Tarbiyaviy maqsadi:** Vatanga muhabbatni tarbiyalash.

v) **Rivojlantiruvchi maqsadi:** O'zbekiston tabiati, me'morchiligi, tarixi, chizilishi to'g'risidagi bilimlarni rivojlantirish.

Darsning jihozlanishi: a) **O'qituvchi uchun:** Rassom R.Temurovning "Registon", "Eski Samarqand", Burening "Registonda bozor", Zommerning "Bibixonim", P.Benkovning "Shohi Zinda" kabi asarlari reproduksiyalari, foto nusxalari, o'quvchilar chizgan suratlar.

b) **O'quvchilar uchun:** Qalamlar, qog'oz, akvarel, suv idish, politra va toza latta.

Darsning metodi: Aralash, savol-javob.

Tashkiliy qism. Sinfga kirib o'quvchilar bilan salomlashish va shu kun yangiliklari, sinf xonasining xolati, o'quvchilarning darsdagi faolligi to'g'risida qisqacha suhbat.

Darsning borishi: Barcha xalqlarning me'morchiligida turar-joylar, jamoatchilik binolari, saroylar va boshqa turli inshootlar o'zining tuzilishi jihatidan tubdan katta farq qiladi. Shuning uchun har bir xalqning turmush tarzini, tarixiy an'analarini, mahalliy sharoitlarini hisobga olib binolar, turar joylar barpo etiladi. O'zbekiston me'morchiligi ham o'ziga xos turli ko'rinishlarga ega. Bular haqida oldingi beshinchi sinfda o'tgan "O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari" mavzusidagi darsda batafsil gaplashib olgan edik. O'zbekiston shaharlari qadimiy sharq me'morligining yorqin namunalari bo'lib hisoblanadi.

Sharqiy xalqlar me'morligining o'ziga xos tomonlaridan biri ularning peshtoqlari, devorlari, minoralarining turli naqshinkor bezaklar, arabiy yozuvlar bilan bezatilishidir. Qadimiy Samarqanddagi Registon ansambili-ning ko'rinishi uchta me'moriy binoni birlashtirib turganligi uchun ham ansambil deb ataladi. Unda Sherdor, Tillaqori va Ulug'bek madarasalari birlashgan. Sherdor madrasasining peshtoqida sher ya'ni, arslon tasviri bo'lib, quyosh, odam qiyofasi aks ettirilgandir. Shu davrga mos tarzda boshqa obidalarda islamiy va grix uslubidagi naqshlar, suls uslubida bitilgan yozuvlar tushirilganligini ko'rasiz. Shuningdek, o'zingiz istiqovmat

qilayot-gan xududdagi me'moriy yodgorliklar va ularning bezaklarini ham eslashga xarakat qilib kuring! Bu kurinishlar siz chizadigan sharqona me'moriy kurinishning bir qismi uchun material bo'lishi mumkin. Sharq me'morligi mavzusida rasm chizishda ularning shaklini, binoning bezagini kurinishga mosligi, binoning esa atrof-muhitga monnandligiga e'tibor berish kerak. Shundagina biz chizgan me'moriy kurinishdagi tasvir hayotiy, ishonchli bo'lib chiqadi. Rasm chizishni boshlashdan oldin rassomlardan Rashid Temirovning "Bibixonim hovlisida bahor", "Samarqand", Pavel Ben'kovning "Sharqona ko'cha", "Chor Minor maschidi", Aleksi Jurovning "Shohizinda", Bahtiyor Boboyevning "Sharqona manzara", Lev Burening "Samarqand", "Registon". Zommerning "Registon", "Kuxna Samarqand" kabi asarlarining foto reproduksiyalarini tomosha qilish mumkin. O'zbekistonning qadimiy shaharlariga bag'ishlangan ko'plab rassom asarlarining foto nusxalari bor. Bularni tomosha qilish orqali ham siz ko'p narsalarni o'rganib olishingiz mumkin. Shuning uchun ham siz bulardan olgan tassurotlaringiz asosida turli rasmlar chizishingiz mumkin. Shular asosida sharqona shahar mavzusiga kompozisiya ishlangiz bo'ladi. Chizgan suratingizni akvarel buyog'ida buyashingiz lozim. Chunki buyoqda rasm juda chiroyli chiqadi. Me'moriy ansambil fragmentini chizishda varaqning biron joyida ham ochiq joy qolmasligi kerak. Ranglarni aralashmasidan doimo foydalaning, chunki sof toza bir xil rang xayotda uchramaydi. Rang kurish uchun manzarani ko'proq kuzating! Me'moriy binoni turli variantlarda ishlash, chizish ham mumkin. Xuddi shu mavzuniyeng o'zini jamoa bo'lib chizish ham mumkin. Bularni joylashtirishni bilish ham katta mahorat talab qiladi.



Samarqanddagi Tillakori madrasasi 1647-1659 yillarda qurilgan bo'lib, u binoning ichki tuzilishi, badiiy bezaklari jilolanadi. O'zbek xalqining rango-rang naqsh elementlaridan qullanilgan badiiy, me'moriy bezaklari uning in'tererini serjilo qilib turibdi. Ularning shakllari, tuzilishiga qarab naqshlar joylashtirilgan. Burchaklardagi mehroblar esa kundal uslubida ishlanib islimiy naqshlar bilan sayqallashtirilgan.

XV-XX asrlarda Xo'ja Axror masjidi ham qurilgan bo'lib u ham sharq me'morchiligining yodgorligidir. U yerning uzida madrasalar, masjidlar, uylar qurilgan bo'lib. Ko'p vaqtlar davomida ular bir necha marotaba ta'mirlangan va qayta tiklangan. XX asrda usto Abdulxofiz Jalilov tomonidan qaytadan qad ko'targan

bu masjid Samarqand naqqoshlik va me'morlik maktabining namunasi bo'lib hisoblanadi.

Xazrati Xizr masjidi XIX asr o'rtalarida Samarqanddagi eng ko'rkam masjidlardan biri bo'lib afsonalarga ko'ra bu sirli zot har doim kutilmaganda paydo bo'lib, duch kelgan yaxshi kishilarga baxt va omad keltirar ekan. Nomutanosib tarzda qurilgan bu bino usto Boqiyning o'g'li Abduqodir rahbarligida tiklangan bo'lib, u Afrosiyob shaharchasining old yonida joylashgan. Yog'och uymakorligini usto naqqosh Fatillo, naqshlarini esa usto Maxmud chizgan. Masjid o'tgan asrning o'rtalarida xalq ustalari tomonidan barpo etilgan me'moriy binolarning eng ko'rkam kurinishlisidir. Shunday me'moriy binolarning ko'rinishiga uxshash kompozisiya chizish mumkin.

O'tilgan mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.

1.Me'morchilik haqida nimalarni bilisiz?

2.Me'moriy ansambil iborasining ma'nosini tushuntiring!.

3.O'zbekiston xududida qanday me'moriy ansambillir bor?

4.O'zbekistonning qaysi shaharlarida me'moriy yodgorliklar bor?

O'qituvchi savollar orqali dars mazmunini yanada tushunarli bo'lishligini ta'minlaydi.

Sinf doskasida mustaqil ishni bosqichlar yordamida chizib ko'rsatiladi va o'quvchilarning o'zlari ham mustaqil ravishda rasm chizadilar. Ish daftar-lariga esa eskizlar, nabroska (qoralama) tarzda chizib oladilar. Mavzuga oid chizilgan rasmlar kurgazmali qilib baholanadi.

Bajarilgan ishlarni baholash quyidagi tarzda olib boriladi.

Baholash mezonlari. 1.Agar qog'oz varag'iga to'g'ri joylashtirilgan bo'lsa 1 ball.

Binolarning shaklini to'g'ri bera olish 1 ball.

Rang tasvirda rasm to'g'ri bajarilishi 1 ball.

Soya va yorug'likning to'g'ri berilishi 1 ball.

Ishning tozaligi 1 ball.

Jami: 5 ball.

Uyga vazifa: Sharq me'morligiga oid rassom asarlarining foto reproduksiyasidan yig'ish, eng go'zal me'moriy shahar kurinishini xotiradan chizib kelish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Fan, 1997.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «O'zbekiston ovozi» gazetasi. 1998 yil. 22 – avgust.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot- provard maqsadimiz. T.: «O'zbekiston», 2000.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Ta'lim to'g'risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risida Qonun. Toshkent: «Fan», 1997.
5. Tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi. Toshkent, O'zPFITI, 1996.
10. Zahidov P. Temur davrining me'moriy kashkashoni. T., «Sharq», 1996.
11. N. Oydinova. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavxalar. T. O'qituvchi. 1997 yil.
12. N. Abdullayev. Tasviriy san'at tarixi. T.: «O'qituvchi», 1989 yil I-II-tom.
13. Yuniy xudojnik 1987 y. 2-son. 1986 yil 8-son. 1985 y. 12-son.
14. B. Negmenskiy. Mudrost krosati. M.: Prosvesheniye, 1989.
15. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: «Fan», 2004.
16. Hasanov R. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. 2-qism. Toshkent: 2006.
17. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktablari. – Toshkent: Fan, 1977.
18. M.Nabiyev. Rangshunoslik. –Toshkent. O'qituvchi, 1975.
19. Sulaymanov A., Jabborov B. Tasviriy san'atda oqim va yo'nalishlar. Toshkent: «Sano-Standart», 2008.
20. Mo'jiza yaratish san'ati. Tuzuvchi, A.S.O'rolov. Toshkent: «Mehnat», 1996.
21. Ergashev D. Tasviriy san'at. 5-sinf uchun tasviriy san'atdan dars ishlanmalari. Samarqand, VPXQTMOI, 2008.

MUNDARIJA

Kirish	3
1. Mavzu: O'rta asrlar tasviriy san'atida usul va yo'nalishlar.	4
2. Mavzu: Xitoy va yaponiya rassomlarining texnologik usulida nam qog'ozda kompozisiya (manzara, daraxtning shohi, gul va hakoza) ishlash.	6
3. Mavzu: Grafik usulda harakatdagi odam (sportchi) gavdasi (figurasi)ni ishlash.	9
4. Mavzu: Loy yoki plastilindan harakatdagi odam (futbolchi, kurashchi, va haoza) gavdasini ishlash.	12
5. Mavzu: O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tabriknoma ishlash.	13
6. Mavzu: 1-MSNI. Turli badiiy-grafik (akvarel, qalam, guash, plastilin yoki loy hakoza) usulda harakatdagi odam gavdasini ishlash.	16
7. Mavzu: turli badiiy material va texnik vosita, usulda (rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik ixtiyoriy tanlanadi) 2-3 figurali mavzuiy kompozisiya (sport, maishiy hayot, san'at va hakoza) ishlash.	18
8. Mavzu: badiiy bezak grafikasi (plakat, shior, mavzuli devoriy gazeta, etiketka, embilema va boshqa) namunalarining eskizini ishlash.	20
9. Mavzu: sharq me'morchiligi san'ati. Miniatyura san'ati tarixi haqida suhbat hamda reproduksiyalarni tahlil etish.	22
10. Mavzu: Sharq miniatyura san'ati asarlari namunalarining elementlari (daraxt, suv, tog', tosh, hayvonlar, gullar, odamlar va hakoza)dan nusxa ko'chirish.	24
11. Mavzu: Darsning mavzusi: o'zbek xalk ertaklari syujeti asosida miniatyura usulida illyustrasiya ishlash.	26
12. Mavzu: 2-MSNI. Sharq mumtoz adabiyoti syujetlari asosida miniatyura usulida mustaqil kompozisiya ishlash.	29
13. Mavzu: Miniatyura ishlash uchun turli hajm va ko'rinishda ish qutilar tayyorlash.	32
14. Mavzu: Ish qutini bezash uchun kompozisiya eskizini ishlash.	34
15. Mavzu: Tasviriy san'atda dostgoh rangtasviri. Dastgoh rangtasvir asarlarini badiiy tahlil etish.	36
16. Mavzu: Dastgoh rangtasvir sohasida ijod qilgan o'zbekiston va jahonning mashhur rassomlarining hayoti va ijodiy faoliyati.	38
17. Mavzu: Rangtasvirda syujetli kartina eskizini ishlash.	39
18. Mavzu: Xotiradan mavzuli natyurmort ishlash.	41
19. Mavzu: 3-MSNI. Adabiy asar syujeti asosida mustaqil kompozisiya ishlash.	43
20. Mavzu: Tabiatning turli holatdagi (tong, quyoshning botishi, quyoshli kun, yomg'irli kun va hakoza) tasvirini ishlash.	45
21. Mavzu: Grafik ish (maktab, sanf embilemasini ishlash)	48
22. Mavzu: Tarixiy yoki mifologik mavzularda portret ishlash.	49
23. Mavzu: Rangtasvirda mavzuli kartina. Suhbat hamda syujetli kartinalirni tahlil etish.	51
24. Mavzu: 4-MSNI. «Bahorgi ishlar» mavzusida syujetli kartina eskizini ishlash.	53
25. Mavzu: Erkin mavzuda syujetli kartina ishlash.	55

